

“Ma’rifat” muxbiri xolismidi?

Biz e’lon qilgan materialga nega aynan muammoga daxldor bo’lgan tomonlar emas, bu masalaga mutlaqo aloqasi bo’lmagan hamkasbimiz e’tiroz bildiryapti?



7-bet

Biblioterapiya. Hissiyotlar “to’qnashgan”da birinchi yordam



8-bet

Attestatsiya va akkreditatsiya jarayonini o’tkazish tartib-taomillari

Nazorat ishlarida qatnashgan o’quvchilarning 45 foizi va undan ko’pi qoniqarsiz baholanib, umumiy balning 55 foizidan kam ball to’plaganda “Attestatsiyadan o’tmadi”, deb e’tirof etiladi.


10-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma’rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 13-iyul, shanba № 54 (9223)

Xalq ziyolilari gazetasi



Amerikaning “Hoshimjon”iga do’stona taklif

11-bet

Abituriyent — 2019



Farg’ona shahar davlat xizmatlari markazida abituriyentlardan hujjat qabul qilish davom etmoqda.

Ovoragarchilikdan xalos bo’lgan abituriyentlar

Abituriyentlar davlat xizmatlari markazlari orqali yashashi va joylashuvidan qat’i nazar, soddalashtirilgan tartibda Toshkent davlat yuridik universiteti, Qoraqalpoq dav-

lat universiteti, Guliston davlat universiteti, Farg’ona davlat universiteti va Samarqand davlat universitetlariga hujjat topshirmoqda.

Bu tartibda hujjat top-

shirib, ham vaqtini, ham naqdini tejagan, turli ovoragarchiliklardan xalos bo’lgan abituriyentlar va ularning ota-onalari bunday qulaylikdan behad mamnun.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

ISH HAQI, PENSIYALAR, STIPENDIYALAR VA NAFAQALAR MIQDORINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA

Aholi daromadlari va turmush darajasini qat’iy oshirib borish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini, shu jumladan, nogironligi bo’lgan shaxslarni yanada ijtimoiy qo’llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda respublika fuqarolarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida:

1. 2019-yilning 1-avgustidan boshlab budget muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori 1,1 baravar oshirilsin.

2. 2019-yilning 1-avgustidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida eng kam:

ish haqi — oyiga 223 000 so‘m;

yoshga doir pensiyalar — oyiga 436 150 so‘m;

bolalikdan nogironligi bo’lgan shaxslarga beriladigan nafaqa — oyiga 436 150 so‘m;

zarur ish stajiga ega bo’lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 267 650 so‘m miqdorida belgilansin.

3. Belgilansinki, 2019-yil 1-avgustdan boshlab:

II guruh nogironligi bo’lgan shaxslarning nogironlik pensiyalari eng kam miqdori yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan 75 foiziga oshiriladi;

II guruh nogironligi bo’lgan yolg’iz shaxslar — pensionerlarning pensiyalariga ustama miqdori eng kam ish haqining 50 foizidan 75 foiziga oshiriladi;

boquvchisini yo’qotganlik nafaqasi miqdori mehnatga layoqatsiz oila a’zolari soniga amaldagi foizlar nisbati saqlangan holda yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori-dan kelib chiqib belgilanadi.

4. 2019-yilning 1-avgustidan I guruh nogironlik nafaqasi, shuningdek, 16 yoshdan katta bolalikdan I guruh nogironlik nafaqasi oluvchilarga har oyda eng kam ish haqining 25 foizi miqdorida qo’shimcha to’lov joriy qilinsin.

5. Moliya vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va muassasalar bilan birgalikda budget muassasalari va tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlarining mazkur Farmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o’z vaqtida qayta hisoblab chiqilishini ta’minlasin.

QISHLOQ XO'JALIGI MASHINASOZLIGINI RIVOJLANTIRISH — YUQORI HOSILDORLIK VA DAROMAD GAROVI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-iyul kuni Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodiga tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bilan tanishdi.

Qishloq xo'jaligida texnika parkini mustahkamlamay turib sifat va samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizda yillar mobaynida turli qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish va chuqur mahalliyashtirishga yetarli e'tibor berilmagan oqibatida texnika parkining yillik yangilanish darajasi 2-3 foizdan oshmas edi.

Ma'lumki, Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi (sobiq Toshkent traktor zavodi) ham kuchli iqtisodiy raqobatga, zamonaviy bozor talablariga dosh berolmay qolgandi. Oqibatda bir paytlar g'ubkirab ishlagan korxonaning bino va liniyalari qarovsizlikdan to'kilib borayotgandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2016-2017-yillarda korxonada raqobatbardoshlikni ta'minlash, traktorlar, tirkama va paxta terish mashinalari tayyorlashni yangi sifat darajasiga ko'tarish maqsadida ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsiyaviy loyiha amalga oshirildi. Uning birinchi bosqichida qora va rangli metallarni payvandlash, qayta ishlash, shtamplash, traktor kabinallari yasash va boshqa turdagi ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish, bo'yash liniyalari ishga tushirildi.

Jahondagi ilg'or tajribani o'rganish va kuchli raqobatga chidamli zamonaviy texnika vositalari ishlab chiqarish uchun AQSh, Janubiy Koreya va Belarus Respublikasining qishloq xo'jaligi mashinasozligiga ixtisoslashgan yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatildi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash uchun sohadagi islohotlarga yangi sur'at bag'ishlash, tarmoqda rentabellikni oshirish talab etiladi. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining ushbu tashrif zavodga katta o'zgarishlar olib keladi. Korxonaga negizida yangi zavodlar ishga tushirilib, tom ma'noda qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoati barpo etiladi.

Jumladan, lokalizatsiya darajasini oshirib, importni qisqartirish maqsadida bu yerda 5 ta korxonaga tashkil etish rejalashtirilgan. Ulardan biri umumiy qiymati 42 million dollar bo'lgan metall quyish korxonasidir. Zavodning 3 gektarlik bo'sh turgan binosida tashkil etiladigan korxonada yiliga 47 ming tonna xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori aniqlikdagi metall qismlar quyiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu korxonaga uchun mo'ljallangan binoni kirib ko'rdi.

Mashinasozlik korxonalarini uchun metall quyish quvvati — eng muhim masala. Buningiz mahalliyashtirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va tanarxini pasaytirishga erishib bo'lmaydi. Bu korxonalarni ishga tushirsak, texnikalarimiz raqobatbardosh bo'ladi, fermerlarimizga hamyonbop mahsulotlar yetkazib beriladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Umumiy qiymati 24 million dollar bo'lgan yana 4 ta loyiha transmissiya vallari, g'ildirak disklari, kabinalar va mahkamlovchi temir buyumlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan. Ushbu loyihalarni ishga tushirish natijasida sohada mahalliyashtirish darajasi 60 foizga yetkaziladi, mahsulot tanarxi 32 foizga va import yiliga 116 million dollarga kamayadi.

Shuningdek, bu yangi quvvatlar nafaqat "O'zagroreksanoatxolding" korxonalarini, balki "O'zavtosanoat" tizimida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar, yuk mashinalari va avtobuslar uchun ham butlovchi qismlarni kooperatsiya asosida yetkazib berishni ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga mazkur loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirib, kelgusi yil ishga tushirish zarurligini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev traktor yig'ish va payvandlash sexlari, «Uz Claas Agro» O'zbekiston — Germaniya qo'shma korxonasidagi ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi.

«Uz Claas Agro» qo'shma korxonasida 4 ta ishlab chiqarish quvvati mavjud bo'lib, ular Germaniyaning «Claas Central Asia Investment» kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan «Dominator 130» kombayni, «Arion 630» haydov traktori va tirkamalar shunday rusumdagi texnika vositalariga qaraganda unumdorligi bilan ajralib turadi. Barcha turdagi texnika vositalari zarur sertifikatlarga ega, xalqaro standartlarga mos.

Prezidentimizga qo'shma korxonaga tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, mahsulot turlari va korxonani rivojlantirish istiqbollari haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari lokalizatsiya darajasini oshirish, yangi qismlar va mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodida agrar soha mashinasozligini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Tarmoqda bozor mexanizmlari joriy etilayotgani, g'alla va paxtaning xarid narxi oshirilgani, meva-sabzavotlar eksporti kengayayotgani natijasida dehqon va fermerlarimizning daromadlari izchil ortib bormoqda. Endi ular yangi-yangi texnikalar olib, ish samaradorligi va mahsulotlar sifatini oshirishga harakat qilmoqda.

2018-yilda fermerlarga 11,5 ming dona texnika yetkazib berilgan. O'tgan yili 10 million dollar, joriy yilning birinchi yarmida esa 15 million dollarlik qishloq xo'jaligi texnikasi eksport qilindi.

Lekin bu mavjud salohiyat va talaba nisbatan juda kam. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida yiliga 11 mingdan ziyod texnika, jumladan, 4 mingta traktor, 500 ta kombayni va 5 mingdan ziyod osmatirkama texnikaga ehtiyoj mavjud. Bundan tashqari, 2022-yilgacha 263 ming gektar, 2025-yilgacha yana 1 million gektardan ziyod yerlar qayta foydalanishga kiritilishi bois bu ehtiyoj yanada oshadi.

Hozirgi kunda mavjud texnikalarning 46 foizi ko'p muddatdan buyon foydalanishda bo'lib, yaroqsiz ahvolda kelib qolgan.

Fermerlardagi texnikaning 97 foizi paxta va g'alla uchun mo'ljallangan.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot va xizmatlar turlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Joriy yil 1-oktabrdan boshlab iqtisodiyotning barcha jabhalari qatori ushbu sohada ham soliq imtiyozlari bekor qilinayotgani tarmoq korxonalaridan yanada faol ishlashni talab qilishi qayd etildi.

Avvalo bozorbop texnikalar ishlab chiqarish, tanarxini kamaytirish, mahalliyashtirishni chuqurlashtirish korxonalar oldidagi eng muhim vazifalar bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Kabina, boshqaruv tizimi, g'ildirak, tezlik uzatgich, osma tizimlar kabi asosiy qismlar lokalizatsiya darajasini 32 foizdan 56 foizga yetkazib, tanarxini 30 foizgacha arzonlashtirish, shuningdek, mahalliy korxonalar o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish orqali yillik importni 20 million dollarga qisqartirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Fermerlarni qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlashning barqaror moliyaviy mexanizmlarini yaratish, texnikalarga servis va ta'mirlash xizmati ko'rsatish, ehtiyot qismlar yetkazib berishni yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Qishloq xo'jaligi texnikasini sertifikatlash tizimini takomillashtirish, tayyor mahsulotlar bilan birga xizmatlar eksportini ham kengaytirish vazifasi qo'yildi. Zamonaviy texnikalar ishlab chiqaruvchi va ularga xizmat ko'rsatuvchi malakali mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bizga raqobatbardosh texnika kerak, qo'shimcha qiymat zarur. Tizim korxonalarida minglab odamlar ishlashi lozim. Bugun belgilangan maqsadlarni kim amalga oshiradi? Mutaxassis. Nima amalga oshiradi? Aql, bilim, mehnat, dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish rejalarini yuzasidan mutasaddilar axborot berdi.

Matnazar ELMURODOV,
O'ZA muxbiri

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

ISH HAQI, PENSIYALAR, STIPENDIYALAR VA NAFAQALAR MIQDORINI OSHIRISH TO'G'IRISIDA

(Davomi. Boshi 1-betda.)

6. Budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning oshirilishi bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshirilsin.

Ish beruvchilarga ish haqi miqdorlarini qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmagan holda to'lashni ta'minlab, ish haqi miqdorlarini eng kam ish haqiga muvofiq oshirish tavsiya etilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'irisida"gi PF-5723-son Farmoniga muvofiq 2019-

yilning 1-sentabridan eng kam ish haqi miqdori o'miga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, bazaviy hisoblash miqdori va pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori kiritilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'irisida"gi PF-5723-son Farmoni 1-bandida:

ikkinchi xatboshidagi "577 170" raqami "634 880" raqami bilan almashtirilsin;
uchinchi xatboshidagi "202 730" raqami "223 000" raqami bilan almashtirilsin;
to'rtinchi xatboshidagi "202 730" raqami "223 000" raqami bilan almashtirilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-oktabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'irisida"gi PF-5553-son

Farmoni uning 4- va 8-bandlari istisno qilingan holda 2019-yilning 1-avgustidan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblandsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'irisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 12-iyul

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM SOHASIDA BOSHQARUVNI ISLOH QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududlarda yangi, shu jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalaridagi islohotlar Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri etib belgilamoqda.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish maqsadida, shuningdek, 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq:

1. Quyidagilar oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy va mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyat yo'nalishida zamonaviy bilim va malakaga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda chet tillarini o'zlashtirgan kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash;

barcha oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy, shuningdek, ularda mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasining davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublaridan keng foydalanish asosida o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda o'qitishning ilg'or shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali va yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlarni tanlash hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bunday mutaxassislar bilan ta'minlash, tizimli rag'batlantirish ishlarini olib borish;

rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish, takomillashtirib borish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish, jumladan, xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tashni tashkil etish, o'quv jarayonlariga xorijlik olimlar, o'qituvchilar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish;

talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

ilg'or xalqaro tajribalar asosida ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, hamkorlikdagi qo'shma oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlarini amalga oshirish, ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda keng yoritish;

ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan hamda xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kasb-hunar kollejlarda mehnat bozorida talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tugatilsin hamda Markazning bo'shayotgan shtat birliklari ushbu vazirlikka o'tkazilsin.

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Markazning barcha huquq va majburiyatlari hamda shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

3. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligining idoraviy bo'yisunuviga o'tkazilsin:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi Metrologik nazorat xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari va ular tizimidagi kasb-hunar ta'lim muassasalari.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi bo'yicha yagona davlat siyosatini, shuningdek, oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida bo'yisunuviga ko'ra vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'quv-tarbiya jarayoniga tashkiliy va metodik rahbarlikni amalga oshirish yuzasidan vakolatli davlat organi etib belgilansin.

5. Vazirlik hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 1-avgustdan boshlab quyidagilarni amalga oshirish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga ko'ra vazirlik boshqaruv xodimlari lavozim maoshlarini aniqlashda tarif koeffitsiyentlarini bir yarim baravar miqdorida qo'llash hamda bu bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplash;

b) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Vazirlik markaziy apparatining:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega xodimlari oylik ish haqiga — **30 foiz**;

fan doktori yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega xodimlari oylik ish haqiga — **35 foiz** ustamalar belgilash;

v) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Vazirlikning markaziy apparati xodimlari oylik lavozim maoshiga oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida xizmat qilgan umumiy ish staji uchun 3 yildan 5 yilgacha — **10 foiz**, 5 yildan 10 yilgacha — **20 foiz**, 10 yildan 20 yilgacha — **30 foiz**, 20 yildan ortiq — **40 foiz** oylik ustamalar to'lash.

6. Respublika oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qish uchun xorijiy fuqarolarni keng jalb qilish maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2019/2020-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari rektorlari (filiallar direktorlari), kasb-hunar ta'limi muassasalarini direktorlariga bo'yisunuv bo'yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda:

xorijiy fuqarolarni o'qitish uchun oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalarida alohida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, kasblar va mutaxassisliklar ochish, ularni o'qitish tili hamda akademik guruh shakllantirish uchun zarur talabalar (o'quvchilar) sonini belgilash;

kasb-hunar ta'limi muassasalarida kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish istagida bo'lgan xorijiy fuqarolarni o'qitish muddati, davomiyligi va ularni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash huquqi beriladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Vazirlik bilan birgalikda ikki oy muddatda tugatilayotgan Markaz xodimlarini ish bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini belgilangan tartibda kirtsin.

9. Vazirlik ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi takliflar kirtsin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduravxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abdurahimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 11-iyul

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIGA BOSHQARUVNING YANGI TAMOYILLARINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asosiy vazifalari** etib belgilansin:

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta'minlash;

idoraviy mansubligidan qat'i nazar barcha oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasining davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga mosligini ta'minlash;

ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

iqtidosiyot tarmoqlari, fan va ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, ishlab chiqarish va boshqa korxonalarda talabalar amaliyotini tashkil etish;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlariga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

ta'lim muassasalarining zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tizimli rag'batlantirish choralarini ko'rish;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishi uchun sharoitlar yaratish, xorijiy davlatlarda malaka

oshirish va stajirovka o'tashni tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurs-lari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, hamkorlikdagi qo'shma oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlarini amalga oshirish, sohada erishilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda keng yoritish;

ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflari, ilg'or xorijiy tajriba, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kasb-hunar kollejlarda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish;

o'quv va ilmiy laboratoriya bazalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, sport-sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tugatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti negizida **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti**;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi huzuridagi Metrologik nazorat xizmati negizida **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'quv ustaxonalari, texnik reglamentlar va metrologik nazorat xizmati**;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari negizida **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari**;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi negizida **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tashkil etilsin.**

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) markaziy apparati tuzilmasiga **oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining yoshlar, ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosari** lavozimi kiritilsin.

5. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi markaziy apparatining boshqaruv xodimlari umumiy cheklangan soni 119 nafardan iborat bo'lgan tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari, shuningdek, idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlar tuzilmasiga belgilangan shartlarni soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi yoki qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan davlat organlari va tashkilotlari, loyiha institutlari, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish tashkilotlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy kompaniyalar yuqori malakali mutaxassis va ekspertlarini konsultant sifatida ishga jalb etish, ularning mehnatiga haq to'lash va boshqa to'lovlari miqdorlarini shartnoma asosida mustaqil belgilash huquqi berilsin.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) **oliy ta'lim muassasalarining tuzilmalari tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari** (mahalliy oliy ta'lim muassasalari filiallari direktorlari) tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda **tasdiqlanadi**;

b) davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasining rektori (xorijiy oliy ta'lim muassasasi filialining mahalliy rektori yoki direktori, ijrochi direktori) bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik va idora rahbarining tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda **Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi**;

v) davlat va davlat ulushi mavjud

bo'lgan oliy ta'lim muassasasining **prorektorlari** (mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali direktori, uning o'rinbosarlari, xorijiy oliy ta'lim muassasasi direktori o'rinbosarlari) oliy ta'lim muassasasi rektorining tavsiyasiga asosan bo'ysunuv bo'yicha **tegishli vazirlik va idora rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi**, bunda:

o'quv ishlari bo'yicha **prorektor** (filial direktori o'rinbosari) lavozimiga nomzod **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**;

yoshlar bilan ishlash bo'yicha **prorektor** (filial direktori o'rinbosari) lavozimiga nomzod **O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi**;

ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha **prorektor** (filial direktori o'rinbosari) lavozimiga nomzod **O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishiladi**;

g) oliy ta'lim muassasalari: huzuridagi **ilmiy-tadqiqot muassasalari**, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari rahbarlari, akademik litseylar direktorlari, bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

fakultet dekanlari oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

d) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining **Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari boshliqlari**, shuningdek, **Vazirlikka idoraviy mansub tashkilotlar va muassasalar rahbarlari oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi**;

e) kasb-hunar ta'limi muassasalari: **direktorlari** bo'ysunuv bo'yicha tegishli **vazirlik va idora rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi**;

direktorining o'rinbosarlari bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda kasb-hunar ta'limi muassasalari **direktori tomonidan, shuningdek, akademik litsey direktori o'rinbosarlari** oliy ta'lim muassasasi rektori bilan kelishilgan holda **akademik litsey direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi**.

8. Vazirlik, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining **2020-yildan boshlab ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining ayrim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talab yuqoriligi va moliyaviy barqarorligini inobatga olib, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.**

(Davomi 5-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIGA BOSHQARUVNING YANGI TAMOYILLARINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 4-betda.)

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish tartibini 2019-yil 1-sentabrga qadar ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlik Mahkamasiga kiritish.

9. O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalariga quyidagi huquqlar berilsin:

a) yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilash;

b) iqtidorli, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

v) saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarini bajarish, o'qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar), shu jumladan, kitoblar, jurnallar, o'quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag'larni mustaqil sarflash;

g) oliy ta'lim muassasasi infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari, jumladan, bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport obyektlaridan foydalanish, ularni toza-

lash, ta'mirlash, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko'rsatishni outsorsing shartlarida tashkil etish;

d) bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda:

oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish;

oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi ta'liq moliyaviy ta'minlash miqdoridan kelib chiqib, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Vazirlik hamda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda har bir oliy ta'lim muassasasining yo'nalishi va xususiyatidan kelib chiqqan holda ularning jihozlanishi alohida yondashuvni talab etayotganligini inobatga olib, Investitsiya dasturlari doirasida o'quv-laboratoriya uskunalarini, axborot-kommunikatsiya vositalari va boshqa texnikalar bilan jihozlash uchun ajratiladigan mablag'larni to'g'ridan to'g'ri oliy ta'lim muassasalariga moliyalashtirish orqali ular tomonidan o'rnatilgan tartibda xaridlar amalga oshirilishini ta'minlasin.

11. Belgilansinki:

a) to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun kontrakt to'lovlarini amalga oshirish muddatlari oliy ta'lim muassasasi rektori (mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali direktori) tomonidan uzaytiriladi;

b) mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi doira-

sida amalga oshirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlari, jumladan, qo'shma fakultetlarda:

talabalarni qabul qilish tartibi, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati hamda mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash miqdorlari hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan kelishuv asosida;

o'qishga qabul qilish parametrlari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tasdiqlash hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari, bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi;

v) talaba-yoshlar o'rtasida sport musobaqalarini keng ommalashtirish va rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari sport klublarini saqlash, sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazish hamda ishtirokchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlashni moliyalashtirish oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

12. 2022-yil 1-yanvargacha:

oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar doirasida oliy ta'lim muassasalari va ular huzuridagi ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini ta'minlash uchun olib kelindigan kitoblar, jumllar, o'quv adabi-

yotlari, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bo'jxona to'lovlarini to'lashdan (bo'jxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari);

O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro kelishuv bo'yicha qo'shma dasturlar (fakultetlar va akademik dasturlar) hamda filiallar (markazlar) shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ygan chet el oliy ta'lim muassasalarining O'zbekiston Respublikasida amalga oshirayotgan oliy ta'lim faoliyati doirasida olingan daromadlari bo'yicha barcha turdagi soliqlar, shuningdek, chet ellik xodimlarning mehnatiga haq to'lash fondi qismi bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan ozod etilsin.

13. Vazirlik:

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduraxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abdurahimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 11-iyul

Yoshlarga oid davlat siyosati — amalda

Xalq cholg'ularining mohir ijrochilari

O'zbekiston davlat konservatoriyasida Madaniyat vazirligi tomonidan o'tkazilgan xalq cholg'ulari ijrochilari respublika tanlovining g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri B.Sayfullayev mamlakatimizda iste'dod sohiblarini aniqlash, ular safini kengaytirish, har jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Mazkur tanlov Prezidentimizning 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etildi. Unda 94 nafar ijrochi musiqa yo'nalishiga oid yetti nominatsiya bo'yicha o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi.

Hakamlar hay'ati tomonidan musiqani teran his

etish, uning g'oyasini tinglovchiga yetkaza olish, ijro mahorati, sahna madaniyati kabi jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari — Toshtemir Shukurullayev (nay), Firdavs Naimov (afg'on rubob), Faxriyov Qosimov (g'ijjak), Ibratjon Hafizov (g'ijjak-kontrabas), Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati o'quvchisi Vahob Qurbonov (chang), O'zbekiston davlat filarmoniyasi davlat akademik xalq cholg'ulari orkestrining sozandasi Shohruh Abdullayev (qashqar rubobi), Qoraqalpog'istondagi 16-bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi Gulnaz Allamberganova (dutor) birinchi o'ringa munosib topildi.

Tadbirda tanlov g'oliblari va ijrochi yoshlar ishtirokida konsert dasturi namoyish etildi.

N.USMONOVA,
O'ZA muxbiri

Ulug'bek maktabida o'qishni istaysizmi?

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi astronomiya, fizika, matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatiga 2019-2020-o'quv yili uchun o'quvchilarni qabul qilish davom etyapti.

Mazkur ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatiga mamlakatimizning barcha hududlaridan 7-, 9-, 10-sinflarga o'quvchilar qabul qilinadi. Ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

O'quvchilar tanlov asosida saralab olinadi.

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirganlar reg.mininovation.uz portali orqali onlayn ro'yxatdan o'tishlari mumkin. Shuningdek, talabgorlarning hujjatlari Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Bodomzor yo'li, Astronomiya ko'chasi, 33-uyda joylashgan maktab-internat binosida joriy yilning 1-avgustiga qadar qabul qilinadi.

Tanlov 2019-yil 5-15-avgust kunlari fizika, matematika va ingliz tili fanlaridan test sinovlari shaklida o'tkaziladi.

MUXBIRIMIZ

Savodxonlik fani

Ona tili — milliy savodxonlik fanidir. Chunki bu fanni mukammal o'qitish orqali o'quvchilarning savodxonligiga erishish mumkin. Ona tili fanini o'qitish mobaynida biz pedagoglar o'quvchilarga tilimiz tarixi, so'zlarning xilma-xilligi, ularning yasalishi, tilshunoslik bo'limlari, so'zlarning boyish manbalari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda eng muhim bo'lgan jihati — imloviy savodxonligiga ham alohida e'tibor qaratamiz.

Darsliklardagi qoidalar ham imloviy savodxonlikka undaydi. Bu esa o'quvchining egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi. Shunday bo'lsa-da, ba'zan o'quvchilarning yozma nazorat ishlari: diktant, bayon, insho, tuzgan matnlarida bir qancha imloviy xatolar uchray turadi. Ayniqsa, o'quvchilarning x va h harflari qatnashgan so'zlarni yozayotganda ikkilanishi, o'ylanib qolishi va hatto bu harflarning o'rni almashtirib qo'yishi achinarli holdir. Bunday holat biz pedagoglarni o'quvchilarning yozma savodxonligi ustida yanada ko'proq ishlashga, bunday so'zlarning to'la-to'kis yozilishini o'quvchilarga oson yo'llar bilan tushuntirishga undaydi. Bu borada o'z tavsiyalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Tilimizda x va h harflari qatnashgan so'zlar juda ko'p. Bu so'zlar qanday yozilishini alohida lug'at tarzida o'quvchilarga to'la-to'kis yodlatish amrimahol. Bu so'zlar kerakli mavzularda o'z o'rni ko'proq qo'llanib, imlosi tushuntirib ketilsa, o'quvchilar oson o'zlashtiradi.

Masalan, x va h harflari bo'yicha 5-sinf ona tili fanining o'quv rejasida "X, x va H, h harflari" mavzusiga bir o'quv soati ajratilgan, xolos. O'quvchi bu bir soat dars davomida x va h harflari bilan yoziladigan barcha so'zlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lolmaydi. Shunday ekan, bu mavzuni keyingi mavzularda tizimli ravishda o'rgatib borish o'quvchiga ancha yengillik beradi. Masalan, shu darslikda "Paronimlar" mavzusini o'tishda x va h harflari qatnashgan so'zlarning izohi ko'proq berilishi ham yaxshi natija beradi. Masalan:

Ahil — totuv, inoq, ittifoq.

Ahl — biror soha, kasb yoki ma'lum doiradagi kishilar.

Mahal — vaqt, dam, payt.

Mahol — amalga oshirish qiyin, mushkul.

Sohil — daryo, ko'l, dengiz kabilar qirg'og'i, cheti.

Sohir — ajoyib, antiqa, g'alati.

Xalal — zarar, nuqson, xalaqat.

Halol — sof, toza.

Xalos — ozod, erkin.

Xolos — faqat, faqatgina.

Xam — egilgan, bukilgan.

Ham — gap yoki gap bo'laklarini bog'laydigan, bog'lovchi yoki ko'makchi o'rni keladigan so'z.

Xat — yozilgan narsa, maktub kabilar.

Had — chegara, me'yor.

Xiyol — sal, biron.

Xayol — o'y, fikr.

Hayal — qisqa vaqt, fursat, on.

Xiyla — anchagina, ko'pgina.

Hiyla — nayrang, firib.

Xil-xil — xilma-xil, rang-barang.

Hil-hil — ortiqcha pishib yetilgan, keragidan ziyod pishgan; yumshoq.

Xol — badanda tug'ma ravishda bo'ladigan qora bo'rtma, nuqta.

Hol — hol-ahvol — holat, vaziyat.

Xo'rlik — tahqirlanish.

Hurlik — ozodlik, erkinlik.

Shox — butoq, shox-shabba.

Shoh — podshoh, hokim.

Halak — nihoyatda charchagan, qiynalgan azoblangan.

Halok — halok bo'lmoq, o'lmoq, nobud bo'lmoq.

"Ma'nodosh so'zlar" mavzusi bo'yicha:

Ahvol, holat, hol.

Beixtiyor, ixtiyorsiz, bexosdan, bilmasdan.

Yashirin, maxfiy, pinhon, xuftiya.

"Juft so'zlar" mavzusi bo'yicha:

Ahd-paymon, mehr-muhabbat, huzur-halovat, xotin-xalaj, xatti-harakat, xavf-xatar, hazil-mutoyiba, xat-xabar, xilma-xil, bahs-munozara.

"Zid ma'noli so'zlar" mavzusi bo'yicha:

Saxiy — baxil, halol — harom, xafa — xursand, alohida — birga, oqil — ahmoq, do'zax — jannat, zehni — zehnsiz, haq — nohaq, obod — xarob, soxta — chin.

6-sinf "Ona tili" darsligida esa "Tub va yasama so'zlar" mavzusi berilgan. Ushbu mavzuning mustahkamlash qismida asosida x va h harflari mavjud bo'lgan, yozma nutqimizda faol ishlatiladigan *baxt, gunoh, zahmat, xoh, hasham, rahm, yaxshi, xalq* kabi so'zlardan yangi so'zlar yasash topshirig'i berilishi mumkin.

6-sinf ona tili fanining "Atoqli otlar va uning turlari" mavzusini o'tishda mustaqil topshiriq sifatida x va h harflari qatnashgan shahar, davlat, meva nomlarini kim ko'p yozish topshirig'ini berish orqali ham bunday so'zlarning imlosi yaxshiroq o'zlashtiriladi. Masalan:

Shahar va davlatlar: *Xorazm, Hindiston, Xitoy, Delhi, Surxondaryo...*

Mevalar: *behi, xurmo, olxo'ri...*

Yuqori sinflarda bu an'anaviy davom ettirishning eng qulay yo'li — nazorat ishi darslaridir. Yozma nazorat ishlari (diktant, bayon, insho) olingandan so'ng keyingi darsda yozma ish tahlili o'tkaziladi. Bunda o'zini o'zi baholash metodidan foydalanish mumkin. O'qituvchi bu darsda o'quvchilarning nazorat ishidagi xatolar ustida ishlab bo'lgandan so'ng so'zlashuv uslubida nafaol, badiiy uslubda faol qo'llanadigan x va h harfli so'zlarni aytadi. O'quvchilar yozib bo'lganidan so'ng ekranda bu so'zlarning yozilishi ko'rsatiladi. O'quvchilar daftarlariga yozilgan so'zlarni ekranda ko'rib o'zlari tekshiradi va baholarini o'zlari qo'yadi. Masalan: *xarxasha, hoynahoy, hihilamoq, haytovur, hijjalamoq, hayhotday, hayfsan, hayhaylamoq, hassos, havoyi, xoxolamoq, xiradmand, xarjlamoq, paxmoq... kabi.*

X va h harfli so'zlarni adashtirmay yozishi uchun o'quvchilarning yozma nutqiga bunday so'zlarni iloji boricha ko'proq olib kirishimiz kerak. Buyuk pedagog aytganidek, "Takrorlash — bilimning asosidir".

O'quvchi olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olmasa, uni uqan deymaymiz. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining kirish imtihonlarida ona tili fanidan yozma diktant olishni taklif etaman. Insonga talab qo'yilsagina u shu talabni bajarish uchun qunt bilan harakat qiladi. Shu usul bilan ham o'quvchilarning, qolaversa, bo'lajak kadrlarning yozma savodxonligini oshiramiz.

Gulmira ESHONQULOVA,
Beshariq tumanidagi 25-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ona tili bo'lib o'qitilsa o'quvchilar savodxonligi ortadi

Umumta'lim maktablarida muayyan fandan bitta sinfga bir o'qituvchi dars o'tadi. Xo'sh, muallim o'rta 25 nafar o'quvchiga 45 daqiqa davomida nimalarni o'rgata oladi? O'qituvchining dars yuzasidan bolalarga yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlari uchun 45 daqiqa kam emasmi?

Rus tili, ingliz tili singari chet tillarda sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitiladi. Bu esa, har bir bolaning shu fan yuzasidan mustahkam bilimga ega bo'lishiga imkon beradi. Chunki pedagog o'quvchilarning fanni qay darajada o'zlashtirganini aniqlab, ulardagi kamchiliklar ustida ishlashga ulguradi.

Maktablarda nafaqat xorijiy tillar, balki davlat tilimiz bo'lmish ona tili va adabiyot fanlarida ham o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitilsa, har bir bola bilan alohida shug'ullanishga ulgurish mumkin.

— Hozirgi kun yoshlarida ko'plab kuzatilayotgan imloviy xatolar va yozma savodxonlik haminqadartligining oldini olish uchun ona tili va adabiyot darslarining ikki guruhga

Maktablarda nafaqat xorijiy tillar, balki davlat tilimiz bo'lmish ona tili va adabiyot fanlarida ham o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitilsa, har bir bola bilan alohida shug'ullanishga ulgurish mumkin.

bo'lib o'qitilishi maqsadga muvofiq, — deydi Peshku tumanidagi 1-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Saodat Jumayeva. — Bunga bir nechta sabablar ham mavjud. Birinchidan, o'quv rejasidagi morfologiya, sintaksis, morfemika va leksikologiya singari bo'limlar uchun ajratilgan mavzularni 25 nafar o'quvchiga 45 daqiqa davomida yetkazib berish mushkul. Ikkinchidan, o'tilgan mavzu o'quvchining xotirasida

saqlanib qolishi uchun o'sha mavzu yuzasidan keyingi darsda savol-javob o'tkazish, o'tilgan mavzuni mustahkamlab, yangi mavzuni bolalarga tushuntirib berish uchun belgilangan daqiqa kam.

Uchinchidan, bir o'qituvchi dars davomida barcha o'quvchilarning nima bilan mashg'ul ekanini birdek nazorat qila olmasligi bois, o'quvchilarda o'z-o'zidan sustkashlik kuchayadi. Qarabsizki, fanga ishtiyoq, e'tibor kamayadi. Bu kabi muammolarning eng samarali yechimi bitta — o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitilishi lozim. O'quv jarayoni shu tarzda olib borilsa, pedagog har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanishiga imkoniyat yaratiladi. O'qituvchi uchun dars davomida kam sonli o'quvchilar bilan ishlash, bilimni nazorat qilish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Gulshan FAZLIDDINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi

Gazetamizning shu yil 6-iyul sonida "Direktorga mudir ham chora ko'rolmaydi! Chunki u viloyat XTB boshlig'ining ayoli" sarlavhali maqola chop etilgan, unda Farg'ona tumani Xonqiz qishlog'ida yashovchi Alijon Bakirjonovning tumanidagi 9-umumta'lim maktabi rahbari faoliyatidan shikoyati yuzasidan olib borilgan surishtiruv natijalari e'lon qilingan edi. Ko'p o'tmay jurnalist Muhammadjon Obidovning raddiyi mazmunidagi maqolasi bilan tanishdik. Maqolani o'qib turib kishida talay savollar tug'ilishi tabiiy. Avvalo, biz e'lon qilgan materialga nega aynan muammoga daxldor bo'lgan tomonlar emas, bu masalaga mutlaq aloqasi bo'lmagan hamkasbimiz e'tiroz bildiryapti? Qolaversa, maqolani o'qigan kishi



anglaydiki, surishtiruv jarayonida "Ma'rifat" muxbiri hatto ta'lim muassasasiga ham kiritilmagan. Shu bois ham tafsilotlarga o'tishdan avval "Bu — bir tomonning fikri, ya'ni shikoyat qilayotganlarning. Mutasaddilarning fikrini esa, afsuski, bilolmadik", deya ta'kidlab o'tilgan edi. Sharifa Madrahimovaning maqolasiga noxolislik ta'rifi berayotgan boshqa bir jurnalist esa hech bir qiyinchiliksiz maktabga kirish va o'qituvchilar bilan suhbatlashish imkoniga ega bo'libdi. Biz xolislik nuqtayi nazaridan M.Obidovning maqolasini ustoz jurnalistning o'zida xos "tanbehi" deya qabul qildik hamda chop etishni ma'qul topdik. Hali-hamon mutasaddilar munosabatini kutayotganimizni ham ma'lim qilamiz.

Tahririyat

"Ma'rifat" muxbiri xolisismidi?

"Ma'rifat" gazetasi 6-iyul kuni 52-sonida "Direktorga mudir ham chora ko'rolmaydi! Chunki u viloyat XTB boshlig'ining ayoli" sarlavhali maqola chop etildi. Jurnalistika tamoyiliga, o'zgar-mas qoidalariga ko'ra maqolada keltiriladigan dalillar kamida ikki-uch manbdan tasdiqlanishi lozim. Ammo muallif Sharifa Madrahimova shunday deb yozadi: "Bu bir tomonning fikri, ya'ni shikoyat qilayotganlarning. Mutasaddilarning fikrini esa, afsuski, bilolmadik". "Direktor Xolida Turdimatovaga qilgan qo'ng'iroqlarimiz esa javobsiz qoldi".

Hurmatli hamkasb! Maktab direktoriga bir bor telefon qilibsiz. Telefoni javob bermabdi. Lekin bu u boshqa mamlakatga ko'chib ketdi, degani emas-ku! Avvalo, siz maktabga uchrashuv haqida avvaldan kelishib bormagansiz. Borgan paytingiz direktor yo'q ekan, kuting, uyiga boring, qayerdaligini surishtiring. Nihoyat uchrashing. Shikoyatchining qarshi ma'lumotlariga izoh so'rang. So'ngra uning izoh va dalillarini ham tekshiring. Shundan keyingina maqola yozib e'lon qilmaysizmi?! Matbuot kim nima deb shikoyat qilsa, uning tekshirilmagan, adovat, tuhmat va shaxsni obro'sizlantirishga qaratilgan asossiz ayblovlarini to'kiladigan "chiqindi maydoni" emas, axir!

Siz yetaklab yurgan shikoyatchi Alijon Bakirjonov (u IIB tizimida ishlab nafaqaga chiqqan. Bu maktabning mehnat faxriysi, nafaqadagi o'qituvchisi emas, siz yozganingizdek) uzoq yillardan buyon Farg'ona tumanidagi 9-maktab direktori X.Turdimatova ustidan turli idoralarga shikoyat yozib yuradi. Mana ularning birida asl maqsadini shunday bayon qilgan:

"Farg'ona viloyat XTB boshqarmasi boshlig'i G.Mamajonovga... X.Turdimatovani ishdan olib, o'rniga malakali direktor tayinlashingizni qat'iy so'rayman".

Bu arizaga imzo qo'yanlar: "A.Bakirjonov, M.So'fiyeva, M.Yo'ldosheva, M.Iskandarova, G.Isroilova".

Maqolada tilga olingan A.Bakirjonovning jiyani M.So'fiyevaga yetarli dars soati berilmagani mojarosi tufayli yuzaga kelgan holat haqida shikoyatchilar murojaat qilgan chog'da 9-maktab direktorining turmush o'rtog'i viloyat XTBda ishlamas edi. Nahotki Sh.Madrahimova "shov-shuv" ko'tarish uchun sarlavhaga shunday gap chiqarishdan avval buni bilmagan bo'lsa?

Maqolada "X.Turdimatova Mahliyo So'fiyevani muntazam haqoratlaydi, nohaq ishdan bo'shatgan va maktabda no-

sog'lom muhit yuzaga keltirgan", deyiladi.

Biz M.So'fiyeva bilan uzoq suhbatlashdik. Sizing direktor qanday so'zlar bilan haqoratlagan, degan savolimizga shunday javob oldik:

— *Feruza Jo'rayeva va Gulbahor ismli hamkasblarimga bu qiz bilan ko'rishma, u sening tenging emas, debdi X.Turdimatova. Keyin 2017-yil dekabr oyida tuman XTBga aytib erim, direktor o'rinbosari Elyor So'fiyev faoliyatini tekshirtirgan...*

— Yana-chi? — degan savolimizga:

— *Menga yetarlicha dars soati bermaydi, — dedi u. — 2017-yil avgust oyining oxirlarida kelsam, X.Turdimatova bor, yo'qol, dedi. Men 8-maktabga borib u yerdan dars olib, 2 kun ishladim. Keyin tuman kasaba uyushmasida ishlaydigan Oxun akaga amakim A.Bakirjonov bilan bordik. Oxun aka maktabga kelib sentabr oyi boshida meni ishga tiklab ketdi.*

Maqolada: "O.Rahmonov masalani o'rganib M.So'fiyeva nohaq ishdan bo'shatilganini aniqladi... va ishga tiklab ketdi", deyiladi.

Biz bu iddalarni ham o'rgandik. Ma'lum bo'lishicha, M.So'fiyeva ishdan bo'shatilmagan. Gazetada yozilganidek, Oxunjon Rahmonov taqdimnomasi bilan qayta tiklangan ham emas (bo'shatilmagach, qayta tiklanmaydi-da). Faqat M.So'fiyeva ishga kelmagan bir hafta uchun ish haqi undirilib, dars soati ko'paytirib berilgan.

E'tibor qiling, 2017-yil sentabr oyida maktab direktori X.Turdimatova malaka oshirishda bo'lgan. Bu voqealar M.So'fiyevaning eri Elyor So'fiyev vaqtinchalik maktab direktori ekanida ro'y beryapti.

Maqolada X.Turdimatovaning eri viloyat XTB boshlig'i bo'lgani uchun M.So'fiyevaga nisbatan adolatsizlik qiladi-yu, tuman XTB unga chora ko'rmaydi, deb yozadi muallif. Holbuki, X.Turdimatovaning eri M.Turdimatov 2017-yil 18-dekabr kuni viloyat XTB boshlig'i etib tayinlangan!

Maqolada "Farg'ona tuman XTB boshlig'i Rasuljon Turg'unov maktabga kirishimizga rozilik bermadi", deyiladi.

— Oldinga A.Bakirjonov bilan bir ayol keldi. O'zini "muxbirman" deb tanishtirdi. Guvohnomasining amal qilish muddati o'tib ketgan ekan. Tahririyatdan shikoyatni o'rganish haqida biror topshiriq borligini ko'rsatolmadim. Shikoyat bilan tanishib chiqsam bo'ladimi, deb so'rasam, uni ham ko'rsata olmadi. Telefonimda bor, xolos, dedi. Bu ayolni birinchi bor ko'rishim bo'lsa... Yo siz jurnalistlar

shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishingiz, shikoyat bilan tanishtirishingiz shart emasmi?!

Maqolada yozilishicha, go'yo "ismi sir qolishini istagan o'qituvchi" X.Turdimatovani zolim, qasoskor, guruhboz, deya ta'riflagan emish.

Men Mindon qishlog'iga borib, maktab jamoasining 39 nafar a'zosi bilan maktabda va uy-ma-uy yurib, yakkama-yakka suhbat qildim. Ularning birortasi ham X.Turdimatova haqida hatto bir og'iz salbiy gap aytmadi.

— *Ishga talabchan, istagan paytda darsimizga kirib kuzatadi, kamchiligimizni ko'rsatadi, o'rgatadi.*

— *Onamizdek mehribon, g'amxo'r. Yaxshi ishlaganni vaqtida rag'ballantiradi.*

— *Odamgarchiligi yuqori. Onam bemor bo'lib yotganida bir necha bor xabar olgani bordi.*

— *Biz yoshlarni qanotiga olgan. Doim nasihat qilib turadi...*

Eshitganim shu kabi e'tirof so'zlari bo'ldi. Maktab o'quvchilari tarix, matematika, biologiya fanlaridan "Bilimdonlar bahsi" ("Bilimlar bellashuvi") nazarda tutilmoqda — tahr.)da viloyat bosqichi g'olibi bo'lishgani, respublika bosqichida ishtirok etishgani, maktab o'qituvchilaridan biri "Xalq ta'limi a'lochisi" ("O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni — tahr.) nishondori bo'lganini aytishdi.

Maqolada bir necha bor isbotsiz gaplar yozilgan. Masalan:

"Boshqa maktablar uzoqlik qilgani uchun noiloj shu yerda ishlashga majburiy".

Biz 4 — 6 kilometr oralig'idagi 6 ta maktabni borib ko'rdik.

"Maktabda hamshira edim. Direktor tazyiq o'tkazgani uchun hozir 35 km uzoqlikdagi maktabda ishlayapman".

Maktab xodimlari ish o'rni ro'yxatida hamshira shtati yo'q. U Mindon poliklinikasidan birlitirilgan. Endi poliklinika rahbariyati bu hamshirani 9-maktabdan boshqa maktabga o'tkazibdi. U hozir ishlayotgan maktab uyidan 35 km emas, 2 km masofa uzoqlikda ekan... (Darvoqe, 9-maktab ham shuncha uzoqlikda.) Qolaversa, hamshiraning boshqa maktabga o'tkazilishiga X.Turdimatovaning nima aloqasi bor? U tibbiy muassasada ishlasa... — A.Bakirjonov sen ham arizaga qo'l qo'yib ber, degandi, qo'l qo'yibman. Shuning uchun boshqa maktabga o'tkazishdi, shekilli, — deydi hamshira M.Yo'ldosheva.

"Viloyat prokuraturasining taqdim-

nomasiga asosan, XTB boshqarma boshlig'ining 2018-yil 10-yanvardagi 14k-sonli buyrug'i bilan X.Turdimatova vazifasidan bo'shatilgan. Keyinchalik yana lavozimiga tiklangan. Uni kim, qanday asos bilan lavozimga tikladi?" deyiladi maqolada.

Muxbirning noxolisligini qarang. Darhaqiqat, X.Turdimatovani vazifasidan ozod etish haqida shunday buyruq bor. Lekin uni kim chiqargan? Muxbir atayin viloyat XTB boshlig'i familiyasini aytmaydi. Chunki bu buyruqni X.Turdimatovaning eri — M.Turdimatov chiqargan. Chunki u viloyat XTBga boshliq etib tayinlangach, er-xotin bir tizimda ishlashi nechog'lik qonuniy, Mehnat kodeksining 79-moddasi bunga yo'l beradimi, deya aniqlik kiritish uchun xotinini maktab direktorligidan bo'shatgan. Biz viloyat prokuraturasidan X.Turdimatovani ishdan bo'shatish haqida viloyat XTBga taqdimnoma kiritilganmi, deya rasmiy so'rov berdik. Ma'lum bo'lishicha, bunday taqdimnoma yo'q ekan.

Nahotki, na muxbir, na tahririyat qani o'sha taqdimnoma, deya so'ramadi?

Xalq ta'limi vazirligidan Mehnat kodeksidagi mezon qishloq joylarda ishlaydigan ta'lim sohasi xodimlariga qo'llanmasligi haqidagi rasmiy javob olinganidan so'ngra, X.Turdimatova yana qayta lavozimiga tiklangan. Bu yerda hech qanday qonunbuzarlik yoki "sirli" hodisa ro'y bermagan.

Yana yozadilar:

"Biz masalaga adolatli yondashgan xolda xolis surishtiruv o'tkazish niyatida edik. Afsuski, direktorning qarshiligi bois bu maqsadimizga yetolmadik".

Hamkasb! Siz telefon qilganda direktor javob bermabdi. Buni "qarshilik ko'rsatish", deyishdan uyalmaysizmi?! Niyatingiz "xolis surishtiruv o'tkazish" ekan, nega noxolis maqolani tezkorlik bilan yozib chop ettirdingiz?!

Men tanqidiy, tahliliy maqolalar matbuotimizda berib borilishining tarafdoriman. O'zim ham vaziyat taqozo etganda shunday maqolalar yozib turaman. Ammo u asosli, xolis tanqid bo'lishi lozim. Shundagina jamiyatga, uning rivojiga naf keltira oladi.

Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq, deydi xalqimiz. "Ma'rifat"da Sharifa Madrahimova "qoqqan nog'ora"dan yoqimsiz ovozigina emas, tarafkashlik hidi kelmoqda. Xolislik barchamiz uchun hamisha muqaddas mezon bo'lib qolishi lozim.

Muhammadjon OBIDOV

Biblioterapiya. Hissiyotlar “to‘qnashgan”da birinchi yordam

Inson kitob o'qish davomida o'zini yanada yaxshiroq anglay boshlaydi, qiyin vaziyatlar uchun tayyor bo'ladi va hatto o'zini baxtiyorroq his qila oladi. Aynan shuning uchun ham hozirgi kunda mutaxassislar insonlarga psixologik yordam ko'rsatishda kitob mutolaasidan terapevtik usul sifatida foydalanishadi va

bu soha “biblioterapiya” deb ataladi. Uning afzalligi shundaki, terapevtik muolajalarga katta mablag' sarflanayotgan bir paytda biblioterapiya metodi yagona kutubxonaga a'zolik kartasidan boshqa hech qanday hujjat yoki mablag' talab qilmaydi.

Bolalar va o'smirlarda uchraydigan psixologik muammolarni biblioterapiya usuli orqali bartaraf etish bo'yicha jadval

№	Yosh davrlari	Yosh davrlariga xos psixologik muammolar	Tavsiya etiladigan badiiy adabiyotlar (ertaklar va rivoyatlar)
1	Maktabgacha yosh davri (3 — 7 yosh)	3 yoshlilarda inqiroz davri — bolada ma'lum darajada mustaqillikka ehtiyojning paydo bo'lishi. Giperaktivlik	Turg'unboy G'oyipovning “Zamonaviy ertaklar” to'plami. Yoqubjon Shukurovning “Kutilmagan voqea” hikoyasi. Yoqubjon Shukurovning “Ona mehri” ertagi.
2	Kichik maktab yoshi davri (7 — 10 yosh)	Diqqatning yetarlicha barqaror emasligi. O'quv faoliyatiga moslashishdagi qiyinchiliklar (maktab darsliklariga qiziqishning pastligi, maktabga borishdan bosh tortish, muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar). Tafakkurdagi rivojlanishlar — narsa va hodisalardagi umumiylikni anglashdagi qiyinchiliklar. Giperaktivlik.	Hakim Nazirning “Najot” hikoyasi. Xudoyberdi To'xtaboyevning “Peshonasiga televizor yopishgan bola” asari.
3	O'smirlilik davri (10 — 15 yosh)	O'z-o'zidan qoniqmaslik hissi. Stress. O'quv faoliyatiga befarqlik.	Hakim Nazirning “Najot” hikoyasi. Miraziz A'zamning “Eng yorug' yulduzlar” asari.
4	Ilk o'spirinlik (15 — 18 yosh)	Kelajak haqidagi xavotirli o'ylar. Tashqi ko'rinishdagi kamchiliklar haqida haddan ortiq ko'p o'ylash. Kasb tanlash muammosi. Stress. O'quv faoliyatiga befarqlik.	Xudoyberdi To'xtaboyevning “Mungli ko'zlar” asari. Asror Nizomovning “Abdulla” asari. Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi. O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi. Shukur Xolmirzayevning “O'n sakkizga kirmagan kim bor...” asari. Tohir Malikning “Vijdan uyg'onur” asari.

Xulqida og'ish kuzatilgan o'smirlarni biblioterapiya usuli orqali psixokorreksiya qilish bo'yicha jadval

№	Xulqida og'ish kuzatilgan o'smirlar	Ulardagi mavjud muammolar	Tavsiya etiladigan adabiyotlar (ertak va rivoyatlar)
1	Impulsivlik (ta'sirga beriluvchanlik)	Boshqalarning fikriga ko'ra ish yuritish natijasida ko'plab xatolarga yo'l qo'yish. Mustaqil qaror qabul qila olmaslik.	Abdulla Qahhorning “Sarob” roman(ushbu asardan inson farzandi hayotda hamisha mustaqil, o'z taqdiri uchun mas'ul ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin). Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari. O'Imas Umarbekovning “Odam bo'lish qiyin” asari. Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari.
2	G'ayriijtimoiy (delinkvent)	Mayda bezorilik. O'g'rilik. Kichik yoshdagi bolalarga nisbatan zo'ravonlik. Hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish. O't qo'yish. Vandalizm (bosqinchilik). Narkotik moddalar savdosi. Agressivlik.	Tohir Malikning “Alvido, bolalik” asari. Yoqubjon Shukurovning “Kutilmagan voqea” hikoyasi(hayvonlarga shafqatsiz munosabat muammosi uchun). Asror Nizomovning “To'labosdi” hikoyasi (unda ezgulik ham, yovuzlik ham javobsiz qolmasligi ifodalangan). Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol” asari.
3	Asotsial (ma'naviy-axloqiy me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor)	Jinsiy og'ish. Qimor o'yinash. Daydilik. Tekintomozlik. Yolg'onchilik. Tilanchilik. So'kinish. Graffiti (devorga chizish va axloqsiz yozuvlar yozish). Subkultura deviasiyalari (sleng, tatuirovka).	Tohir Malikning “Shaytanat” asari. Tohir Malikning “Shaytanatning jin ko'chalari” asari. A.Dyuma “Graf Monte-Kristo” (1-, 2-qism-lari). Luqmon Bo'rixonning “Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi” asari.
4	Avtodestruktiv (o'zini xarob qiluvchi yoki addiktiv) — shaxsning rivojlanishiga va sog'lig'iga tahdid soluvchi tibbiy, psixologik me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor	Suitsid. Psixofazol moddalarga tobeklik. Kompyuterga tobeklik.	Tohir Malikning “Shaytanat” asari. Tohir Malikning “Shaytanatning jin ko'chalari” asari. “Kalita va Dimna”. Stendalning “Qizil va qora” romani. Luqmon Bo'rixonning “Qidiruvdagi qiz” qissasi.

Mushtariy ABDULLAYEVA, Respublika bolalar kutubxonasi uslubiyotchisi, psixolog

Ta'lim olishda eng muhim manba kitobdir. Afsuski, bugungi kunda maktab kutubxona tizimi eskirgan va muhimlik darajasi ancha pasaygan. Texnologiyalar asrida maktab kutubxonalari ahamiyatini oshirish uchun qanday funksiyalardan foydalanish ko'proq samara beradi?

Maktab kutubxonalari roli qanday oshiriladi?

Bugungi taraqqiy etgan davrda biror sohaga oid ma'lumot topish uchun alohida kutubxonaga borib, bir necha kitoblar ichidan kerakli ma'lumotni soatlab qidirish shart emas, uni internet orqali oson topish mumkin. Ammo dunyo miqyosida uydalarni internetdan foydalanish imkonini mavjud bo'lmagan o'quvchilar ko'plab topiladi. Ular uchun kutubxonada o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Boshqa tomondan olib qaraganda, internetdagi axborot oqimi tobora ko'paymoqda Bugun o'quvchilarning muammosi manba topish emas, balki manbalarni to'g'ri va noto'g'ri yoki foydali va foydasizga ajratishdir. Ayni shunday vaziyatda kutubxonada xizmatiga ehtiyoj har doimgidan-da ko'proq seziladi. Avvallari chop etilayotgan kitoblar kutubxonada

mutaxassislari tomonidan tavsiya qilinardi, lozim topilmasa, taqiqlab qo'yilardi. Shu sababli mutolaa qilish mumkin bo'lgan kitoblarni tanlash qiyinchilik tug'dirmagan. Ammo internetda bu usulni qo'llash oson bo'lmaydi, albatta. Ayrim veb sahifalarni bloklash orqali faoliyatini to'xtatish mumkin. Lekin ularning soni juda katta tezlik bilan ko'paymoqda. Kutubxonachilarning vazifasi esa o'quvchilarga axborot ummidan qanday qilib to'g'ri ma'lumotni olish va axborot manbani qiymatini baholashni o'rgatishdir.

O'quvchilar axborot almashimuvini qanday jadallashayotganligini ko'rib, his qilishi uchun kutubxonada xodimlari tomonidan yordam olishi mumkin. Bu uch bosqichda amalga oshiriladi:

mot asosida turli ko'rinishdagi badiiy materiallar tayyorlash. Bunda o'quvchilarning o'zlarini to'plagan ma'lumotlarni jamlab, o'quv qo'llanma, videodarslik, kichik kitoblar tayyorlashi mumkin. Kutubxonaning asosiy vazifasi esa ularga yo'l ko'rsatish va sharoit yaratish, ya'ni kutubxonada ovoz yozish studiyalari, amaliyot hamda namoyish xonalari tashkil qilib berish va ularni kerakli jihozlar, kompyuter, mikrofon, kameralar bilan ta'minlashdan iborat.

Uchinchi, tayyor bo'lgan badiiy materiallarni kutubxonada veb sahifalarida e'lon qilish yoki chop etish. Bu bosqichda o'quvchilar tayyorlagan materiallarni chop ettirishda kutubxonada xodimlari yaqindan yordam berishlari maqsadga muvofiq.



avlodning chuqur bilim olishiga yordam beradi hamda kutubxonalar va kutubxonachilar uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochadi. Va nihoyat, kelajakdagi ta'lim jarayonida kutubxonalar rolini oshirishga xizmat qiladi.

Ulug'bek YODGOROV

Ta'kid

Kitobim — ustozim

Ishdan qaytayotib, xiyobondagi charxpalak diqqatimni tortdi. Kompyuterdan toliqqan ko'zlarim charchog'ini chiqarish uchun charxpalak ro'parasidagi o'rindiqqa joylashdim. Suv tomchilari bir-birini quvlar, shildirar; chelaklagandek quyilar, bu esa ajoyib kayfiyat bag'ishlardi. Nafaqat ko'zim, butun jismim, borlig'im orom olib, charchoqni unuttim. Juda xursand bo'lib xayolot olamiga sho'ng'indim...

Hayot davom etadi, suvlar oqib ketaveradi. O'qishga kirolmadim. Ikki yildan beri oliy ta'lim muassasida ishlayapman. Atrofmda son-sanoqsiz kitoblar. Professor-o'qituvchilar bilan muloqot qilaman, ularning keng dunyoqarashi meni hayratga soladi. Juda ko'p kitob o'qiganini anglayman.

Ziyolilarga nisbatan butun dunyoda “elita qatlami” degan ta'rif ishlatiladi. Keyingi yillarda men ham noyob asarlarga ishqiboz bo'lib qoldim. Biroq professorga xos mulohazakorlik, keng fikrlash faqat kitob o'qish bilan shakllanarmikan, deya o'ylab qolaman. Ko'p kitob o'qimagan pir-u badavlat qariyalarimizning donishmandligi-chi, qanday paydo bo'ladi?

Meni o'ylantirgan jumboqning javobi ayon! Yoshi ulug'larda hayotiy tajriba katta. Hayot kitobini ko'p o'qigani uchun keksalar biz yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsata oladi. Demak, nafaqat kitob mutolaasini, balki hayot maktabi saboqlarini ham o'zlashtirib borishimiz kerak.

Taniqli munaqqid, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'riflagandek, “Kitob — olamning birinchi mo'jizasi”, u dunyodagi eng qimmatbaho xazina. Butun borliqni lol qoldirgan barcha mo'jizalar kitobga jamlangan noyob bilimlar samarasidir.

Kitobga yozilgan haq so'zni aslo yo'qotib bo'lmaydi. Kitobga o'lim yo'q, u manguqlik daxldor. Jadid bobolarimiz bor-u yo'g'ini xalqni savodli qilishga, gazetajurnal chop ettirishga, maktablar ochishga sarflagan. Teatr truppassi chiqishlari orqali xalqning turmushini o'ziga ko'rsatishga uringan, ongsizlaracha hayot kechirib, o'zini o'zi xarob qilmaslikka undagan.

Tarixga nazar solsak, davlat boshlig'i ziyoli bo'lgan davrlarda xalqimiz barcha jabhalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Olim-u fuzalolar, shoir-u faylasufning dong'i dunyoga doston bo'lgandi...

Ularni buyuklik cho'qqisiga kitob olib chiqqan. Kitobga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan davrda ona zaminimizdan yana allomalar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Charxpalak singari hayot tegirmoni aylanaveradi. Shunday davrlar bo'ldiki, odamlarning uyi tintildi, kitobi borlar qamaldi, tafakkur durdonalari yoqib kul qilindi, milliy qadriyatlarimiz toptildi. Millatdoshlarimiz manqurtga aylantirildi...

Shukrki, kitob o'qish, unga qiziqtirish, targ'ib qilish, mutolaaning ahamiyatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yangi avlod olamning birinchi mo'jizasi bilan do'stlashsa, yaqin kelajakda kitobxonlari ko'p davlatlar qatoriga chiqib olamiz.

Xitoy, Germaniya, Yaponiya — dunyoning eng rivojlangan davlatlari. Ayniqsa, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarning dunyo arenasiga chiqib olgani kimni hayratga solmaydi?!

Tadqiqotlardan biri diqqatimni tortdi. 50 yoshdan kattalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazgan shifokorlar o'lim ko'rsatkichi kitob o'qimaganlarga nisbatan o'qiydiganlarda 23 foiz kam ekanini aniqlabdi. Demak, kitob — umrning uzayishiga ham sabab bo'ladi.

Charxpalakdan bir maromda sochilayotgan suv tomchilari vaqtning tezkorligini esimga soldi. Charchoqlarim tarqab, sergak tortib, uyga yo'l oldim...

Dilorom RASULOVA

O'zlikni anglatuvchi asar

Nazarimda, har bir kitobxon o'qishi kerak bo'lgan kitoblar, qiyoslab aytganda, zabt etishi zarur bo'lgan cho'qqilar bor. Shu cho'qqining eng ulkanlaridan biri — Hazrat Navoiy asarlaridir. Ammo bu manzilga yetmoq mushkul. Adabiyotga mehr, so'zga mas'ullik hissi, fidoyilik va cheksiz sabr-toqatni yelkalabgina bu manzil tomon o'tlanmoq mumkin.

Hazrat Navoiy nomi bilan ataladigan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi sifatida yaqinda ulug' mutafakkirning durdona asarlaridan bo'lmish “Lison ut-tayr”ni o'qib chiqdim. Mutolaa asnosida, ehtimol, anglaganimdan anglaganim, topgan dur-u javohirlarimdan topolmaganlarim ko'proqligiga amin bo'ldim. Navoiy hayotining so'nggi yillari yozilgan mazkur asarda falsafiylik ustun. Shu sabab oddiy kitobxon ilg'ashi mushkul o'rindar bor. Shu asarni o'qidim-u, ba'zi kitoblarni umqoq uchun keng dunyoqarash, yetuk bilim zarur ekaniga yana bir bor ishonдим. Biroq bu cho'qqini zabt etish borasidagi orzum endi qat'iy maqsadga aylandi.

Mutolaadan so'ng taassurotlarni boyitish, asarni yanada chuqur anglash, ko'ngilda tug'ilgan savollarga javob axtarish uchun navoiyshunoslarning, tadqiqotchilari olimlarning fikrlari bilan tanishdim. Natijada yangi bilimlarga ega bo'ldim.

Bir necha kun shu asar ta'sirida yurdim. Majlis qurmoq uchun jam bo'lgan qushlarning odil hukmdorni izlab olis va mashaqqatli yo'lga chiqishi bilan boshlanuvchi asar xayolimni tamoman band etdi. Asarni o'qiyapman-u, o'sha qushlarning o'rni shu holga tushgan kishilarni tasavvur qilyapman. Uzoq yo'ldan horigan, toliqqan qushlarning ba'zilari manzilga yetmayoq ortga qaytadi. Shu payt yengilning ustidan, og'irning ostidan yuradiganlar ko'z oldimga keldi. Axir oldiga maqsad



qo'yib, unga yetishishda sal qiyinchilikka duch kelsa, yo'lidan qaytadiganlar ozmi oramizda?! Asarda turli qushlar misolida insonga xos illatlar ramziy ifodalangan. Bu — asarning ta'sir quvvati va jozibasini yanada boyitgan.

Qushlar manzili tomon oshiqarkan, yo'lda ko'plab vodiylardan o'tadi, Hudhud hikoyatlarini tinglaydi. Xulasa, yakunda ular izlagan odil hukmdor asida o'zlarini ekanini tushunib yetadi. Yana o'xshatishlar, misollar orqali asarni ongimga singdirishga urinaman: inson nega dunyoga kelgani, nega yashayotganini anglab yetishi yo'lida ko'p mashaqqat chekishi kerak. U shundagina o'zligini anglaydi. O'zligini anglagan inson esa barchasi o'ziga bog'liqligini tushunib yetadi.

Shodiya TURDIYEVA

Attestatsiya va akkreditatsiya jarayonini o'tkazish tartib-taomillari

Shu yilning 1-sentabridan boshlab respublikamizning barcha davlat va nodavlat ta'lim muassasalari attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi «Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorining mazmun-mohiyati, unda belgilangan vazifalar xususida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i Ravshan ERGASHEV ma'lumot berdi.

— Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, — deydi R.Ergashev. — Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari ular faoliyat boshlagan paytdan boshlab, 5 yil (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari 6 yil) muddatga akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi. Belgilangan muddat tugaganidan so'ng ular akkreditatsiyadan o'tkazilishi shart.

Litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan davlat namunasidagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablari asosida ta'lim olgan bitiruvchilarga beriladi.

Attestatsiya bosqichlari

Attestatsiya ichki va tashqi baholash bosqichlarida amalga oshiriladi. Ichki baholash o'zini o'zi baholash tarzida amalga oshiriladi, tashqi baholash ichki baholash o'tkazilganidan keyin tashkilot faoliyatiga inspeksiya tomonidan baho berilishidir.

Ta'lim tashkilotlari tarkibidagi filiallar va OTM tarkibidagi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim instituti attestatsiyasi ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Attestatsiya jarayonida ta'lim tashkilotlarining oxirgi ikki yillik faoliyatini kompleks tahlil qilish asosida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

1) **maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:** tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi; rahbar va tarbiyachi-pedagog kadrlar salohiyati; moddiy-texnika bazasining holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar; sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena normativlariga, estetik talablarga rioya qilinishi hamda ovqatlanirish sifati; milliy, madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanish holati; MTM faoliyati yuzasidan ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari; ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash dasturlarining ijrosi;

2) **umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida:** tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi; o'quvchilarning darslik hamda metodik

qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasi; pedagog kadrlar salohiyati; ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish usullari va AKTning joriy etilgani; moddiy-texnik ta'minot; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish sifati; o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari va kasbiy ta'lim berilishining sifati; xalqaro va respublika fan olimpiadalarida ishtirok etish holati va ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilar salmog'i; reyting baholash tizimining qo'llanilish sifati; bitiruvchilarning OTMga o'qishga kirish holati; umumiy o'rta yoki o'rta maxsus ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari;

3) **maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida:**

a) **musiq va san'at ta'limi tashkilotlarida:** o'quv-metodik ishlarining olib borilishi va o'quvchilarning cholg'ular, notalar hamda metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasi; madaniy-ommaviy tadbirlarning tashkil etilish holati; pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi va pedagog kadrlar salohiyati; moddiy-texnika ta'minoti va ta'lim yo'naltirishiga mosligi; xalqaro va respublika ko'rik-tanlovlari hamda festival g'oliblari bo'lgan o'quvchilar salmog'i;

b) **bolalar o'smirlar sporti ta'lim tashkilotlarida:** sportchilarni tayyorlash bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining davlat talablari va o'quv dasturlariga muvofiqligi; sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha taqvim rejalarining tuzilgani va uning ijrosi; pedagog kadrlar va trenerlar bilan ta'minlanganlik darajasi; sport turlari bo'yicha sport bazasining mavjudligi, sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlangani; respublika va hududiy terma jamoalarning asosiy va zaxira tarkibiga nomzodlar tayyorlash darajasi; sport ta'lim tashkiloti terma jamoasining xalqaro, respublika va hududiy sport musobaqalarida erishgan natijalari; sport ta'lim tashkilotida tashkil etilgan tadbirlar tahlili; sport turlari bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlangani; ta'lim oluvchilarni sport tayyorlov guruhining keyingi bosqichlarida saqlab qolish monitoringi; o'quvchi-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishning holati;

d) **kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida:** o'quvchilarning o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirishi (bilimi); pedagog, muhandis-pedagog kadrlar bilan ta'minlangani va ularning sifat tarkibi; o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha zarur o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar to'plami, meto-

dik qo'llanma, elektron darsliklar) mavjudligi hamda kutubxona yoki ARM fondining ular bilan to'ldirilgani; kutubxona yoki ARMning o'qitish tiliga mos o'quv, metodik, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va badiiy adabiyotlar bilan boyitilishi; moddiy-texnika ta'minoti va ularning o'quv jarayonida foydalanilishi; respublika va xalqaro miqyosdagi kasbiy ko'rik-tanlovlar g'oliblari salmog'i; ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi; kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi, ta'lim muassasasi o'quvchilar qabul qilish jarayonining amalga oshirilishi; bitiruvchilarning ta'limning keyingi bosqichiga o'qishga kirishi hamda ishga joylashishi; ma'naviy-ma'rifiy ishlarining tashkil etilgani va samarasi; o'qituvchi va o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar hamda ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi;

4) **oliy ta'lim muassasalarida:** tashkiliy-boshqaruv faoliyatining samaradorligi; talabalarning fan dasturlarini o'zlashtirish (bilimi); professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va mutaxassisligi (ixtisosligi)ning dars berayotgan faniga muvofiqligi; talabalarning darslik (elektron darslik) va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangani, elektron kutubxona tizimining mavjudligi, undan foydalanish samaradorligi va mustaqil ta'lim bo'yicha axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatining yaratilgani; moddiy-texnika ta'minoti, o'quv laboratoriyalarining zamonaviy asbob-uskunalar hamda foydali o'quv-laboratoriya maydoni bilan ta'minlangani; ta'limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasi; ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati; bitiruvchilarning ta'limning keyingi bosqichiga o'qishga yoki ishga kirishi; xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilgani; abituriyentlarni o'qishga qabul qilish jarayonining amalga oshirilishi; bitiruv-malakaviy ish va magistrlik dissertatsiyasi bajarilishi (sifati), yakuniy davlat attestatsiyasiga oid faoliyat va undan natijalari; ish beruvchilarning bitiruvchilar bilimi, malakasi va ko'nikmalaridan qoniqishi;

5) **oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida:** ilmiy rahbar va maslahatchilar tarkibining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijalari; mazkur ta'lim bosqichiga jalb etilgan pedagog va ilmiy xodimlarning Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallar, shuningdek, xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop ettirgani; ilmiy-eksperimental, moddiy-texnika bazasining holati; doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ijtimoiy, ilmiy, ijodiy hamda loyihalash ishlarini olib borish uchun yaratilgan shart-sharoitlar; doktorant va mustaqil izlanuvchilar shaxsiy ish rejasining bajarilishi, hisobotlarining OTM yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining kollegial organlari

(ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqa)da muhokama qilingani hamda tasdiqlangan rejaga mos deb topilgani; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutini bitirgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyalarini himoya qilishi holati;

6) **kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida:** moddiy-texnika ta'minoti; pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyati; o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTning joriy etilishi; ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hamda xalqaro hamkorlik faoliyati; bitiruv imtihonlari, malaka va bitiruv ishlarining bajarilishi; malaka oshirish va qayta tayyorlash yakuni bo'yicha diplom, guvohnoma, sertifikatning rasmiylashtirilishi va berilishi.

"Attestatsiyadan o'tmadi" deb e'tirof etilsa...

Ekspert komissiyalari tomonidan ichki baholash natijalari va boshqa taqdim etilgan hujjatlarda haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarning aniqlanishi ta'lim tashkilotlarining "attestatsiyadan o'tmadi", deb e'tirof etilishiga sabab bo'ladi hamda ta'lim olganlik to'g'risida davlat namunasidagi hujjat berish huquqidan mahrum etiladi. Bunday holatda bir yildan so'ng qayta attestatsiyadan o'tish uchun ariza bilan murojaat qilish mumkin.

Attestatsiyadan o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklar belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan taqdirda, Davlat inspeksiyasi tomonidan tegishli vazirliklar va idoralarga taqdimnoma kiritiladi. Kamchiliklar vaqtda bartaraf etilmasa, ta'lim tashkilotiga berilgan akkreditatsiya sertifikatini bekor qilindi. Bunda ta'lim tashkiloti navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi "Attestatsiyadan o'tmadi", deb e'tirof etilsa, davlat MTM rahbarining malakasi yetarli emas, deb topiladi hamda ish beruvchi tomonidan u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi. Nodavlat MTM litsenziyasining amal qilishi belgilangan tartibda tugatiladi.

Umumta'lim maktablari nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarning 55 foizi va undan ko'pi ijobiy baholanib, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarida belgilangan umumiy balning 55 foizi va undan ziyodini to'plagan-da, "Attestatsiyadan o'tmadi", nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarning 45 foizi va undan ko'pi qoniqarsiz baholanib, umumiy balning 55 foizidan kam ball to'plaganda "Attestatsiyadan o'tmadi", deb e'tirof etiladi.

"Marifat" muxbiri Dilshod RO'ZIQULOV yozib oldi.

Insonning qalbidagi orzu-niyatlariga, ezgu fikrlariga, vijdoniga qarab baho berish kerak ekan.

Amerikaning "Hoshimjon"iga do'stona taklif

(Tom Soyerga maktub)

Yosh bo'lishiga qaramasdan, katta masalalarni osongina hal eta oladigan qahramonim Tom Soyer, ahvollariningiz qanday? Nazarimda, ayni paytda qarochilik bilan band bo'lsangiz kerak-a? Ko'p jihatlaringiz antiqaligi bilan meni lol qoldirdi. Oltin qalbli dovyurak do'stim, men sizni o'zimizning Hoshimjonga o'xshatdim. Rostdan ham ikkalangizdagi ko'p jihatlari o'xshash. U ham sizdek sarguzasht talab, yerga ura, ko'kka sapchiydigan bola. Ikkingiz ham juda sho'x bo'lishingizga qaramay, yuraklaringizda zarracha ham g'ubor yo'qligi samimiy harakatlaringizdan ko'rinish turadi.

Asami o'qiy boshlagach, o'yinqaroqliklaringizga, xarakteringizga guvoh bo'lganimdan so'ng ko'z o'ngimda bir zumda Hoshimjon gavdalandi. Shunda men insonlar boshqa-boshqa millat vakillari bo'lsa-da, qalbani yaqin bo'lishlariga amin bo'ldim. Hoshimjonning sizdan birgina farqi — u barcha ishlarni sehirli qalpoqchasi yordamida bajaradi. Siz esa o'z aqlingizni, qobiliyatingizni ishga solasiz. Biroq, Hoshimjon ilm olishga uquvi bo'lmasa-da, qobiliyatini kishilarga naf yetkazishga bag'ishladi. Biz sizning maktabda avvaliga yaxshi baholar olganingiz qalayi medalizingiz borligidan ham xabardormiz. Bundan tashqari, ko'p kitob o'qiganingizni asar davomidagi so'zlaringizdan bilib oldik. Shunday iqtidor egasi, nega endi qarochilik qilmoqchi? O'zingiz ham nomingiz butun dunyoga mashhur bo'lishini juda xohlar edingiz. Mashhurlikka erishish uchun qarochilik bilan shug'ullanish to'g'ri yo'l emas, deb hisoblayman. Tinib-tinchimas bo'lsangiz-da, qalbingiz mehri-shafqatga to'raligi, har qanday vaziyatdan uddaburonlik bilan chiqib ketishingiz, dovyurakligin-

giz, qisqasini aytganda, insoniyatingizning o'zi nomingizni jahonga tanitdi. O'ta ketgan sho'xliklaringizdan aziyat chekkanlar ham talaygina. Biroq shunga qaramasdan, hindu Joning o'limini ko'rganda unga bir muddat achinganingiz haqiqiy insoniylikka ega ekanligingizga ishora deb bilaman. Bu jihatlaringizni barcha tengdoshlaringizga o'rmaq qilib ko'rsatsa, arziydi.

Bilasizmi, antiqa qobiliyatingizni qarochilikka emas, balki insonlar uchun foydali, halol ishlarga sarflashingizni juda xohlardim. Hali ham kech emas, Hoshimjonga o'xshab aqlingizni, ajoyib iqtidoringizni ilmingizni boyitish uchun sarf etsangiz, ezgu ishlar uchun bag'ishlasangiz, o'zingiz kutgandek, yaxshi nom ostida butun jahonga nafi tegadigan mashhur inson bo'lasiz.

Gulnora XOLMURODOVA,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'quvchisi

Salom, qadrlid do'stim Tom! Ishlaringiz yaxshimi? Sho'xliklar qilib yuribsizmi? Sarguzashtlaringizni o'qib bir olam taassurot oldim. Bola bo'lishingizga qaramay, o'ta makkor va firibgar hindu Joning iziga tushib, hatto qorong'ida qabristonga ham borganingiz meni va do'stlaringizni hayratga soldi. Mening ko'nglim ham sarguzasht istaydi.

Tom, sizga havasim keladi!

To'g'ri, bolalik davridan o'tib boryapman. Lekin har safar sarguzashtlaringizni o'qib siz bilan yonma-yon yurganday bo'laman. Nima bo'lganda ham o'zimning hayotiy sarguzashtlarim boshqacha bo'lar edi, deb o'ylayman. Sizga nisbatan boshqalarning qarashlari ham o'zgaradi. Doimo sizga salbiy munosabatda bo'lgan ustozingiz ham, sho'xliklaringizni tanqid qiladigan Polli xola ham oxir-oqibat sizdagi jasoratga qoyil qoldi. Mendan Gekberri Finga salom ayting. Uning hayotdagi qiyinchiliklari ko'nglimga o'gir botdi.


Men hamma baxtli va to'kis yashashga haqli

deb o'ylayman. Uning hayoti ham siz tufayli tubdan o'zgardi. Yoningizda Gek kabi yelkadosh do'stingiz bor ekan, hayot yo'llarida qo'qilmaysiz. Men ham ana shunday sodiq ya'ni meni qo'llab-quvvatlab turuvchi do'stim bo'lishini istardim. Qisqasi sizga juda havasim keladi. Gek timsolida Samuel(Mark Tven)-ni ko'rdim. Har yili Mark Tvenning tug'ilgan kuni munosabati bilan u yashagan uyning devorini bo'yash bo'yicha musobaqa bo'lar ekan. G'oliblarga yozuvchining kitoblaridan sovg'a qilinarkan. Men ham Oллоh nasib qilsa, o'sha musobaqani ko'rishga boraman.

Muxlisa TOSHO'LATOVA,
Jizzax shahridagi 23-maktab
o'quvchisi



Tomning boshidan kechirgan sarguzashtlari menda juda katta taassurot qoldirdi. Asarni zo'r qiziqish bilan o'qib tugatganimni bilmay qoldim. Nafaqat qiziqdim, balki personajlariga, ayniqsa, Tom Soyerga chin dildan mehr qo'ydim. Har bir asarda bo'lganidek bu asarda ham personajlarning o'ziga yarasha fe'l-atvori, o'y-xayollari, ichki tug'yonlari mahorat bilan tasvirlangan.



Chekinmaslikni o'rgatdi

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asari eng sevimli sarguzasht to'plamlarim qatorida turadi. Bu asarni har o'qiganimda Tom yetim bo'lishiga qaramay, hayotning turli sinovlarida bardoshli, sho'x, xayolparast qahramon sifatida xayolimda gavdalanadi.

Uning hayotda hech narsadan qo'rqmay, haqiqatga tik boqishi, o'z do'stlariga sadoqati, vijdoniga qarshi bormasligi, oldiga qo'ygan maqsadi sari il-dam qadam tashlashi menga olg'a intilish, maqsaddan chekinmaslikni o'rgatdi. Tom qarochi bo'lishni, ko'p boylik to'plashni orzu qiladi. Mana shu orzulari yo'lida turli to'siqlarga duch keladi. Xususan, u Gekberri Fin bilan birga jinoyatga guvoh bo'lib, oxir-oqibat Meff Potterni qutqarishi barchani hayron qoldiradi. Qarochi bo'lish istagida Tom va do'stlari uydan qochib ketadi. Turli ko'ngilsizliklarga uchraydi. Erkin, ozod yashasalar-da, o'z fursatda uylarini sog'inlashadi. Chunki uylarida ba'zan ta'na qilib urishsa-da, ularni yaxshi ko'ruvchi insonlari borligini tushunib yetishadi. Tom o'z qahramonligi, jasorati va pok vijdoni bilan oxir-oqibatda o'gay ukasi Sid, Polli xola, sudyatetcher va uning qizi Bekkinning muhabbatiga sazovor bo'ladi.

Feruza G'ANIYEVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Qahramonim Tomning Oltin qalb egasi

xarakteridagi tez-tez o'zgarib turishlar, sho'xliklar, uning boshqalarni, ayniqsa, o'ziga yoqqan odamlarni ko'rganda o'ziga jalb qilish uchun qiladigan g'ayritabiiy tufayli uddaburonligi, qiziquvchanligi tufayli tushib qolgan holatlari ko'z oldimda bo'layotgandek tasavvur qildim.

Hamma bolalarga o'xshab Tom Soyer, Jozef Garper, Finni uchun ham qilma deyilgan ishni qilish juda qiziq edi. U va do'stlari g'ayratli, qiziquvchanligi va qo'rqmasligi tufayli shahardagi odamlar va o'z yaqinlari, tengdoshlari orasida shuhrat qozondi. Asar-

ning ba'zi o'rinlarida ularga qo'shib rosa ho'ngrab yig'lab yuborganimni o'zim bilmay qoldim. Tom juda katta tasavvurga ega, xayolot olami boy bola. U mana shu jo'shqin va beg'ubor olami bilan unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan barchani hayratga soldi. Ularning fikrini o'zgartirdi.

Tom Soyer kabi bolalar qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar o'rmaq bo'lishga arziydi. Men qahramonimga havas qildim.

Nuriya YARASHEVA,
Pitnak shahridagi
9-maktab o'quvchisi

Polli xolaning erkatoyi

Tom Soyer haqidagi asarni o'qiy boshlaganimda, u namuna bo'ladigan, odobli bola emas ekan, deb o'yladim. Ayniqsa, bolakayning Polli xoladek g'amxo'r, muloyim va mehribon ayolini sho'xliklari bilan tashvishga qo'yishi menga biroz yoqmadi.

Tomdagi o'yinqaroqlik, maktabga beparvolik, ustozlaridan tanbeh eshitishini ko'rib, uni sinfimizdagi ayrim to'polonchi bolalarga o'xshatdim. Ammo asarni o'qib tugatgach, Tom haqida ham, sinfimizda shumligi bilan nom chiqqan o'quvchilar haqida ham fikrim o'zgardi. Sababi, insonning qalbidagi orzu-niyatlariga, ezgu fikrlariga, vijdoniga qarab baho berish kerak ekan. To'g'ri-da, kishi bilimli, odobli, itoatli bo'lsa-yu, Meff Potterdek qiyin vaziyatga tushib qolgan begunoh insonga yordam qo'lini cho'zmasa! Asar qahramonida ana shunday jasorat borligiga

qoyil qoldim. Shuningdek, xayolparast, sarguzashtlarni sevuvchi Tom o'z kamchiliklarini ko'ra oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan uddaburon bola ekaniga guvoh bo'ldim. Chindan ham, u juda samimiy va g'aroyib bola ekan. Uning ajoyib sarguzashtlarini nafaqat qiziqib o'qidim, balki yaxshilarga mehri va yomonlarga jasoratidan ibrat oldim. Ko'ngil javonim yana bir asar taassuroti bilan boyiganidan behad xursandman.

Mohinabonu RUSTAMOVA,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi

Mitti odamlar qirolligi

Yoxud dunyodagi eng g'aroyib istirohat bog'lari

Jazirama yoz faslida insonlar tabiat bag'rida, go'zal manzarali istirohat bog'larida dam olishga oshiqadi. Shu pallada yashillikka burkangan joylarni tomosha qilib, tabiatning naqadar ajoyib musavvir ekaniga qoyil qolasan, kishi. Bu go'zallikka sayqal berish asnosida yaratilgan dunyodagi eng betakror va g'aroyib istirohat bog'lari esa hayratimizni ikki karra oshiradi.



Ulardan biri Yaponiyadagi **Asikaga istirohat bog'i** bo'lib, bu maskan "Gulli diyor"ning o'zginasi. Bog'da hamisha yoz fasli hukm suradi — unga na xazonrezgi kuz va na sovuq qish raxna sololadi. Kuzda bog' ichini ziravor o'simliklarning yoqimli isi tutsa, qish oxirlariga borib lolalar, nargis va olxo'ri daraxti gullaydi. Bahor va yoz faslida esa Asikaga chinakam "gullar diyori"ga aylanadi. Ayniqsa, atrofga yo'yilib ketgan turfarang, kapalak ko'rinishidagi pechakgullar shiyonlarga chirmashib, uzunligi 80 metrgacha boradigan tunnellar hosil qiladi. Mahalliy aholi ularni baxt va muhabbat tunnellarini deb ataydi.

Fransiyadagi mashhur **Versal istirohat bog'i** ham dunyoning diqqatga sazovor maskanlaridan sanaladi. Bog'dagi katta va obrazli gulzor, haykallar bilan o'ralgan xiyobon, 1400 ta favvara, 350 ming daraxt, g'or va sharsharalar, osmon hamda hashamatli saroyini o'zida aks ettiruvchi oynali sun'iy suv havzalarini bir kunda aylanib chiqishning imkonini yo'q. Xiyobonda xuddi uning asoschisi Lyudovik XIII istaganidek hamisha yoqush porlab turadi. Shuningdek, Versal — matematik mantiqqa bo'ysunadigan dunyodagi eng g'aroyib bog' hisoblanadi. Bu yerdagi har bir gul va o'simlik o'zining aniq koordinatasiga ega. Hatto yog'och tuvaklarga ekilgan orxideya gullari ham geometrik qonunlarga bo'ysunadi.

Niderlandiyadagi jahonga mashhur **Kekenxof istirohat bog'i** ko'pchilikka yaxshi tanish. 1949-yilda asos solingan bog' qisqaca vaqt ichida nafaqat Niderlandiya, balki Yevropadagi eng go'zal maskanga aylangan. Hozir uni "Yevropa bog'i" deb ham atashadi. U o'zining 32 gektar hududida o'suvchi 100 dan ortiq turdagi lolalari bilan nom taratgan. Albatta, bog'da lolalardan tashqari siren, liliya, orxideya, atirgul kabi gullar ham o'sadi, insonlarning maroqli dam olishi uchun hovuz, sharshara va favvoralar mavjud. Biroq bu yerga har yili keladigan 800 mingdan ortiq

sayyoh aynan bahorda, faqat mart—may oylaridagina ochiladigan "injil" lolalarni ko'rishga ishqiboz. Ayniqsa, aprelning so'nggi kunlarida bog'da o'tkaziladigan an'anaviy gullar festivali mahalliy aholi va sayyohlar ishtirokida katta shodiyonaga aylanadi. Festival doirasida bog' atrofi kutilmagan shakl va ranglardagi gullar kompozitsiyasi bilan bezatiladi. Ularni tayyorlashda bog'bon va gulchilar yuz minglab lola va niderlandiyaliklarning sevimli gullaridan foydalanadi.

Bugun insonlarni yanada ko'proq hayratlantirish istagidagi landshaft dizaynerlari istirohat bog'larini yaratishda o'simliklarga shakl berish orqali turli labirint va kompozitsiyalar, ma'lum mavzu doirasidagi ekspozitsiyalar va boshqa g'aroyib ishlanmalardan foydalanayotgani sir emas. Shulardan biri Kosta-Rikadagi **Fransisko Alvarado istirohat bog'i** bo'lib, ushbu g'aroyib maskanni landshaft dizaynining chinakam mo'jizasi deyish mumkin. Bog' yo'laklari bo'ylab sayr qilgan kishi o'zini o'simliklardan yaratilgan hayvonot dunyosiga tushib qolganidek his etadi. Atrofdagi fil, maymun va boshqa hayvonlar ko'rinishidagi o'simliklar shu qadar mohirlik bilan ishlanganki, ular go'yo jonlidek tasavvur uyg'otadi. Katta, yam-yashil labirint bog'ning eng sirli qismi. Uning ichiga kirgan inson xuddi son-sanoqsiz yashil arklar orasida, ertaklardagidek bir-biriga chatishib ketgan g'alati yo'llarda yurgandek bo'ladi. Yo'l-yo'lakay kutilmaganda paydo bo'ladigan gigant haykallar va boshqa g'aroyib haykaltaroshlik namunalardan ayrimlar qo'rquvga tushsa, boshqalar mohir usta yaratgan san'at asarlarini tomosha qilishdan zavq oladi. Bir so'z bilan aytganda, bog'ni shunchaki hayratlarsiz sayohat qilishning sira iloji yo'q.

"Avatar" filmidagi fantastik manzara yodingizdami? U ko'pchilik o'ylaganidek kompyuter texnologiyasi mahsuli emas, balki Xitoydagi **Chjanszyasze milliy**

bog'ining filmga ko'chgan tasviri, xolos. Hududi 13 ming kvadrat metr bo'lgan bog' balandligi 800 metrgacha boradigan ohaktosh va kvars ustunlari bilan mashhur. Mahobatli ustunlarni qalin o'simliklar o'rab olgan. Bog'dagi daraxtlarning aksariyati uzoq yillik, ayrimlarning yoshi 100 dan oshadi. Bu yerda bir-biridan g'aroyib, kamyob o'simliklarni ham uchratish mumkin.

Sayyohlar bog'ni kanat yo'li bo'ylab sayr qilishni xush ko'radi. Tepadan bu diyorning bor go'zalligi, tik qoyalari-yu, sirli so'qmoqlarini aniqroq tomosha qilish mumkin. Shuningdek, sayohat davomida bog' hududida joylashgan Xuanlun g'oridagi yerosti ko'lini qayiqda suzib o'tish, 999 ta zina orqali Tyanmen tog'iga chiqish ham kishilarga o'zgacha zavq beradi.



Avstriyadagi Tragoess shaharchasida joylashgan **Yashil ko'l bog'i** ham o'zining g'aroyibli bilan ajralib turadi. Gulzor, xiyobon, daraxtzordan iborat ushbu maskan bir qarashda, oddiy bog'lardan farq qilmaydi. U holda bog'ning o'ziga xosligi undagi ko'l suvining yashil rangdagi bo'lsa kerak, dersi. Yo'q, unday emas. Gap shundaki, kuz va qish oylarida sokin va ko'rimsizgina bo'lib qoladigan bog' bahor va yoz mavsumida sayyohlar bilan to'lib-toshadi. Chunki bahorning ilk oylarida qor va muzliklarning erishi hisobiga ko'l suvi toshib, 2—10 metrgacha ko'tariladi va bog' suv ostida qoladi. Shunda bu yer odatiy dunyoni suv ostida ko'rish imkoniyatini beradigan yagona joyga aylanadi. Bog'dagi hamma narsa — o'simliklar, yo'laklar, o'rindiqlar joyida qoladi, faqat siz ularni piyoda emas, suvda suzib, baliqlar hamrohligida "sayr qilasisiz". Bu g'aroyib manzarani tomosha qilish istagidagi sayyohlar maxsus akvalang kiyimida suvga tushadi. Kuz faslining boshlarida ko'l suvi avvalgi holatiga qaytgach, bog' yana to'la o'yigacha odatiy oilaviy dam olish maskaniga aylanadi va sayyohlar suv ostidagi ertaknamo bog'ni ko'rish uchun kelasi yil bahorini kutishiga to'g'ri keladi.

G'aroyib bog'lardan yana biri Manxettendagi **Xay-Layn istirohat bog'i** hisoblanadi. U yer yuzasidan 10 metr balandlikda joylashgan. Gap shundaki, bu joydan bir paytlar temir yo'l o'tgan va keyinchalik so'lim boqqa aylantirilgan. Hududi 2,3 km.gacha cho'ziladigan yashil xiyobon manzarali daraxt va gullar bilan o'ralgan. Bu yerdan, ayniqsa, Gudzon daryosi juda chiroyli ko'rinadi. Bog'da ko'plab mashhur shaharlarning original ko'rinishdagi maketi yaratilgan. Hozirda ushbu so'lim go'sha nafaqat shahar aholisi, balki sayyohlarning ham sevimli dam olish maskani hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, Xay-Layn — shahardagi mashhur san'at maydoni hamdir. Bu yerda dunyoning

turli burchaklarida yashovchi mashhur san'at namoyandalari to'planib, o'z ko'rgazmalarini taqdim etadi.

Koinot sirlariga qiziquvchilar uchun Shotlandiyadagi **Kosmik fikrlar istirohat bog'i** ayni muddao. Er-xotin Charlz Jekson va Meggi Chesvikl yaratgan ushbu bog'ning dunyoda o'xshashini topolmaysiz. Uning umumiy ko'rinishida koinot miniaturasini aks etgan. Landshaft dizayni yordamida bog' hududi bo'ylab yulduzlar, Somon yo'li, osmon jismlari ko'rinishi tasvirlangan. Bu yerga kelganlar bir qarasang, "qora tuynuk"ka tushib qolishi, yana bir qarasang, matematik formulalardan iborat Kleyn shishasidan chiqishlari mumkin. G'oya mualliflarining rejasiga ko'ra, bog' dizayni unga tashrif buyuruvchilarda koinot haqida tasavvur uyg'otishi kerak edi va ular o'z maqsadlariga erishdi.

Bog'da odatiy ko'rinishdagi hech narsa yo'q. Bu yerda hamma narsa — sun'iy tepalik, ko'priklar, zinalar, hatto o'rindiqlar ham sirli koinotga mos tarzda noodatiy shakllarda yaratilgan. Bog'ni bezab turgan hashamdor haykaltaroshlik namunalari esa tabiat manzarasi bilan bir butunlik hosil qiladi. Bir so'z bilan aytganda, kosmik bog'da tabiat, san'at va matematikaning g'aroyib uyg'unligini ko'rish mumkin. Aytganicha, yilda bir marta sayyohlarga bog' asoschisi Charla Jekson laboratoriyasiga tushishga ruxsat etiladi.

Xitoydagi **"Mitti odamlar qirolligi" istirohat bog'i** haqida eshitganmisiz? Aslida, bu yerni pakana odamlar yashaydigan qishloq, deb atash ham mumkin. Bog' hududida mitti odamlarning o'z xususiy maktab, shifoxona va do'konlari bor. Vaqti-vaqti bilan qishloq eshiklari mehmonlar uchun ochiladi va past bo'lyi odamlar ertaknamo kiyimlar kiyib, xohlovchilarni o'z uylariga ekskursiyaga taklif etadi. Qo'ziqorin yo'li daraxt shaklida qurilgan uylarni tomosha qilish chindan juda maroqli. Ammo sayyohlarga bu g'aroyib bog'ni sayr qilish imkoniyati har doim ham berilmaydi. Shunga qaramay, ushbu maskan mamlakatdagi eng mashhur joylardan biri sanaladi.

Yaponiyaning Osaka shahrida joylashgan **Shaxmat bog'ini** sayohat qilish ham juda zavqli. Ushbu sokin go'sha shahar markazidagi eng tinch dam olish maskanlaridan biri. Bu yerdagi hamma narsa — bolalar arg'imchoqlaridan tortib, dam olish o'rindiqlarigacha shaxmat doskasi va donalari ko'rinishida bezatilgan. Avvaliga faqat dam olish maskani bo'lgan bu joy keyinchalik sport o'yinlari o'ynaladigan istirohat bog'iga aylantirildi. Bu yerda bolalar yoz mavsumida sportning istalgan turi bilan shug'ullanib, vaqtlarini maroqli o'tkazishlari mumkin. Shubhasiz, bog'da shaxmat, shaxsha va boshqa sport anjomlarini topish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuningdek, bu yerdagi barcha obyektlar qimmat va ekologik toza materiallardan yasalgani bog'ning qiymatini yanada oshiradi. Hozir ushbu maskan mahalliy aholi va sayyohlarning oilaviy hordiq chiqaradigan sevimli go'shasiga aylangan.

Agzamov Avazxon Talgatovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiy fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Xankeldieva Xurmatxon Kamchiyevnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda vegetativ tireoid statuslarning xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@mail.uz

Ashirmatova Xatira Seydraximovnaning 14.00.08 — Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha "Trombofilianing genetik markerlarini aniqlash asosida to'r parda venalari trombozining rivojlanish xavfini prognozlashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Kurbannazarov Muratbay Kunazarovichning 14.00.08 — Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha "Janubiy Orolbo'yi (Qoraqalpog'iston Respublikasi) mintaqasida yashovchi aholida uzoqni ko'ra olmaslikning klinikasi va kechishining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Bozorov Akmal Amonovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiy fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

To'xtaboyeva Yulduzxon Abdusattorovnaning 03.00.05 — Botanika ixtisosligi bo'yicha "Farg'ona vodiysi asosiy tip tuproqlarining algoftorasi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 28.09.2018.V.76.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

Aliyeva Namuna Komilovnaning 03.00.05 — Botanika ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda Rhaponticum integrifolium C. Winkl.ning bioekologik xususiyatlari va tabiiy zahiralari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 28.09.2018.V.76.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

Xandamov Davron Abdikadirovichning 02.00.11 — Kolloid va membrana kimyosi ixtisosligi bo'yicha "Modifikatsiyalangan montmorillonitlarda ba'zi organik moddalar bug'larining adsorbtsiyalanish termodinamikasi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Rasulov Baxtiyor Abdug'afurovichning 03.00.04 — Mikrobiologiya va virusologiya ixtisosligi bo'yicha "Diazotof rizobakteriyalar ekzopolisaxaridlari asosida kumush nanozarralari olish va ularning antimikrob ta'siri mexanizmi tadqiqi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Mikrobiologiya instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.B.38.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-b uy.
Tel/faks: (71) 241-92-28, 241-92-71; e-mail: microbio@academy.uz

Madraximov Shermuxammadi Nurullayevichning 15.00.01 — Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Flanorin, ferulen, sinarozid, eksumid, katatsin va allergodaf substansiyalaridan tayyor dori shakllari texnologiyasini yaratish" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38, e-mail: farmi@bcc.uz

Sharipova Saodat Tursunbayevnaning 15.00.01 — Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'simlik xom ashyolari asosida diuretik dori vositalarini ishlab chiqishning farmakotexnologik aspektlari" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38, e-mail: farmi@bcc.uz

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovichning 08.00.13 — Menajment ixtisosligi bo'yicha "Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" mavzusidagi (iqtisodiy fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Mirzanov Berdak Joldasbayevichning 08.00.06 — Ekonometrika va statistika ixtisosligi bo'yicha "Milliy hisoblar tizimi uslubiyati asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiy fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Iminov To'xtasin Nurmamatovichning 08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Sug'oriladigan yerlarda irrigatsiya xizmatlari va meliorativ tadbirlarning samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandisligi instituti, Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.10.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yilning 26-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-46-68, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Xaydarov Bekmurod Do'siyarovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Lalmikor maydonlarda boshqoqli don ekinlarini yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., PSUYEAITI.
Tel/faks: (95) 142-22-36, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Rasulova Feruzaxon G'ofirovnaning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Almashtirish tizimlarida sabzavot va takroriy ekinlarning tuproq unumdorligi, g'o'za hamda g'alla hosildorligiga ta'siri (Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., PSUYEAITI.
Tel/faks: (95) 142-22-36, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan 2009-yilda **Maksudov Sherzod Abdusamatovich** nomiga berilgan B №421889 raqamli BAKALAVR DIPLOMI yo'qolganligi bois

BEKOR QILINADI.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi institutning xo'jalik bo'limi mudiri Surayyo Mehmonqo'ziyevaga onasi

Umriniso SHOAZIZOVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

“Tumor”im bor

Qishloqqa oz qoldi. Soyning narigi betidagi uylarning tomlari elas-elas ko'zga tashlanadi. Otamning bo'ynidan mahkam quchgancha kecha yodlagan she'rinni bor ovozda o'qib ketyapman:

*Agar seni aldasa hayot,
Sen noumid bo'lma hech qachon...*

Botib borayotgan quyosh, qushlar, daydi shabboda, otamning bir maromdagi oyoq tovushlari... salobati insonni-da hayiqtiradigan yag'rindor qirlar ham o'zini tutolmay menga jo'r bo'ladi go'yo:

*G'amli kunga qilgin itoat,
Xushnud kunlar keladi ishon...*

Ha, topdingiz! Butun tabiatning tinchini buzgan, bepoyon kengliklarga Masih nafasidek jon kiritgan, besh-olti yashar bolakayning qalbida adabiyotga muhabbatni alangalatgan yuqoridagi satrlar Pushkinniki edi.

U paytlari o'qishni bilmasdum. Qorong'ilik bilan ayovsiz kurashayotgan mardona moychiroqning yoqlari toliqib, bir “puuf”ga bardosh berolmay qol-gach, otam o'qilaverib varaqlari titilib ketgan kitobni bir chetga surib, yoddan she'r o'qirdi, men takrorlardim. Qachon uxlab qolganimni bilmayman. Yana o'sha satrlar... Go'yo so'nib qolgan moychiroqning yoqlari to'kchadan emas, endi mening qalbidan taralayotgandek tuyulardi. Tushlarimda ham qo'shni Zuhra opaning kitobida suratini ko'rgan, sochlari patila Push-

kinning qarshisida unga jo'r bo'lib she'r o'qirdim:

*Qalb kelajak ishq-la yashar,
Bu kunimiz qayg'u va dog'li.
Bari oniy, o'tishga shoshar,
O'tgan esa hamisha totli.*

Rost. O'sha totli bolalik kunlarini sog'inaman. Pyotr Aleksandrovichning foytunida Pugachyovning yoniga borganim, Bog'chasaroy fontani yonida Mariya bilan vidolashganim, Tatyanning maktublari, sodda baliqchi cholning kampiridan bolalarcha arazlaganlarim — bularni unutilib bo'ladimi?!

Rus tilini yaxshi bilmaganim bois uning asarlarini aslicha o'qiyolmayman. Tarjimalarini qidiraman. Cho'lpon, Usmon Nosir, Asqad Muxtor, Zulfiya, Shuhrat, Mirtemir... Mirzo Kenjabek — Pushkin ikimimiz oramizdagi tilmoqlar. Ularga ming rahmat!

Tarjimonlar orasida bir gap bor: nasriy asarni o'g'irayotgan tarjimon muallifning izidan boradi. She'riy asarda esa muallif bilan tengma-teng raqobatga kirishadi. Buning uchun esa katta jasorat va tinimsiz mehnat kerak.

Bir kuni “Kitob dunyosi”ni o'qiyotib Pushkin she'rlarining yangi tarjimalariga ko'zim tushdi.



Ich-ichimga sig'may ketdim. She'rlarni sevimli shoirimiz Humoyun Akbarov tarjima qilgan ekan. Qani endi, ustoz ko'proq tarjima qilsa, Pushkin ijodi bilan yanada yaqinroq tanishsam, degan o'y xayolimdan o'tgandi o'shanda. Niyatim xolis ekan. Mana, bugun qo'limga “Cho'lpon” nashriyotida yaqindagina chop etilgan “Tumor” nomli kitob turibdi. Kitobdan Humoyun Akbarov tarjima qilgan Pushkinning yuzdan ortiq she'rlari, “Lo'lilar”, “Anjelo” va “Ritsarlar zamoni-dan sahnalar” dostonlari o'rin olgan.

Aziz kitobxon, kitob javoningiz yana bir asar bilan boyiydigan bo'ldi. Qutlayman! She'riyatga osholikkdan chekinmang.

Humoyun QUVONDIQOV

Elda aziz

E'tirof va e'zozga munosib

Ilm ahlining o'ziga ishonishi va o'z qadrini anglashi ularni yanada kamtarin, olijanob, fidoyi bo'lishga undaydi. Ana shu xislatlarga ega inson, filologiya fanlari nomzodi, “Shuhrat” medali sohibasi Qumrixon Sultonova uchun o'zlikni anglash va insoniy tuyg'ularni qalbgacha singdirish muhim jihat sanaladi.

U buvisi O'ktamxon Ibrohim qizidan arab va fors tillarini, eski o'zbek yozuvini, xattotlik sirlarini, onasi Baynaxondan she'r va g'azal tahlilini mukammal o'rgangan. Ilk maqolasi respublika matbuotida chop etilganida hali 3-sinfda o'qirdi. O'shanda poytaxtdan kelgan maktubdan ruhlangan qizaloq ijod va ilm yo'lida tinmay izlandi.

ToshiDU (hozirgi O'zMU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida professor G. Karimov, S. Dolimov, O. Madayev, K. Nazarov, L. Qayumov kabi ustozlar sabog'ini oldi.

Universitetni muvaffaqiyatli bitirib, Farg'ona davlat pedagogika instituti (hozirgi FarDU)da pedagogik faoliyatini boshladi. Ustozi — akademik Azizxon Qayumov rahbarligida “Ogahiyning “Gulshani davlat” asari adabiy manba sifatida” mavzusida ilmiy izlanish olib borib, 2000-yili nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Olima 1990-yildan 2018-yilgacha Respublika ta'lim markazida turli lavozimlarda mehnat qildi.

Ona tilidan DTS va o'quv dasturlarini tajriba-sinovdan o'tkazish, sinov natijalarini umumlashtirishda faol qatnashdi. Ona tili darsliklarini yaratish jarayonida ishtirok etib, qimmatli takliflarini berdi. Pedagogning 100 dan ziyod ilmiy-metodik maqolasi, 20 ga yaqin metodik qo'llanma va tavsiyalari chop etilgan. U respublikadagi 10 nafarga yaqin eksperimentator-o'qituvchining ish tajribasini umumlashtirib, risola tarzida nashr ettirdi.

Q. Sultonova Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tka-



zilgan “Elda aziz” ko'rik-tanlovi g'olibidir.

Har bir inson hayoti davomida ezgu ishlari, ezgu amallari bilan yaxshi nom qoldirishni istaydi. Vaqtning shiddatini qarangki, Respublika ta'lim markazidagi salkam 30 yillik faoliyati davomida tajribali metodist, kamtarin va zukko olim Qumrixon opa o'zidagi bor ilm va mahoratni, go'zal muomalani, sharqona odobni o'zgalarga yuqtira oldi. O'zi istiqomat qilayotgan “Ilg'or” mahallasining faoli va olimlar uyushmasi rahbari sifatida ham faoliyat yuritishi oilasida sog'lom muhit barqarorligidan dalolat.

Ayni kunda 60 yoshini nishonlayotgan kamtarin, shirinsuxan olimaga shunday degimiz keladi: har bir bosgan qadamingiz qutlug' bo'lsin, farzandlar kamolini ko'ring.

Shoira BOYMURODOVA

San'atga mehr qo'yan har bir qalb egasi o'ta nozik didi bilan ajralib turadi. Bunday insonlar yon-atrofidagilarga mehribon, o'zgalari yutug'idan quvonadigan, olijanob va kamtarin bo'lishi hayotda ko'p kuzatilgan. Fidoyi muallim, jonkuyar pedagog, Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni tayyorlash va kasbga yo'naltirish xayriya to'garagi rahbari Muzaffar Begmatov hayoti va faoliyati barcha hamkasblari uchun namunadir.

Muvaffaqiyat sabog'i

— 1978—1981-yillari Qozog'istonda harbiy xizmatda bo'ldim, — deydi pedagog. — Rotamiz rassomi Tolik degan qozoq yigit menga ustozlik qilgan. O'sha kezlari oliy o'quv yurtiga kirib, Qo'shrabot tumani-dagi 68-maktabda o'quvchilarga dars berishni niyat qilgandim. Badiiy grafika yo'nalishida tahsil olib, ustozlar o'g'itini qulog'imga quydum. 34 yildan buyon tumanimizdagi Mayintepa qishlog'ida joylashgan 68-maktabda tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan saboq beraman. Iqtidorli o'quvchilarni kashf qilib, ularga ko'maklashish hayotiy shiorim. Maktabdagi ishlarimni ustoz Egamberdi Qurbonov qo'llab-quvvatlab, ishlab chiqqan dastur va rejalarim asosida maktabda tuman “Barkamol avlod” bolalar markazining filialini tashkil etishimga turtki berdi.

Haqiqatan ham, pedagog maktab o'quvchilari uchun rassomlik to'garagi tashkil etish uchun yelib-yurgardi. Buning natijasida esa maktab o'quvchilari tasviriy san'at va chizmachilik fanidan chuqur bilim egalash imkoniyatiga ega bo'ldi va bu bilim, ko'nikmalarini Eron, Rossiya, Ruminiya, Finlandiya, Bolgariya, Belarus kabi ko'plab davlatlarda o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda namoyish etib kelishmoqda.

Oydin Ulug'ova 2014-yildan buyon to'garakning faol a'zosi. U Belarusda o'tkazilgan “Orzular ola-

mi”, “Jonajon o'lkamda”, Bolgariya yada bo'lib o'tgan “Nova Zagora”, Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan “Chaykovskiy asarlari bolalar rasmlarida”, “Kotovasiya” xalqaro tanlovlarida yuqori o'rinnlarni egallab, 2018-yilda SamDUning Tasviriy san'at va chizmachilik fakultetiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. Maktabning 8-sinf o'quvchisi Feruza Otaqulova esa Yaponiyaning “Pentel” xalqaro tanlovida oliy o'ringa munosib topilib, oltin medal bilan taqdirlandi. Yosh bo'lishiga qaramay uning bunday yutuqlari bisyor.

Muzaffar Begmatovning tinimsiz intilish va mehnati zoye ketmadi. O'quvchilarining ijodiy ishlari respublika san'at bayramida, “Erta bahor” va “Yosh rassom” tanlovlari-da e'tirof etildi.

M. Begmatov jamiyatga salohiyatli yoshlarni yetishtirib berish bilan birga o'z ijod namunalari bilan ham ko'plab xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lgan. U 100 dan ortiq rangtasvir va grafik asarlar yaratib, 1987-yildayoq Samarqand va Toshkent shaharlarida “Jonajon O'zbekiston manzaralari” shaxsiy ko'rgazmalarini tashkil etdi. Uning hajviy-karikatura asarlari Ozarboyjon, Makedoniya, Slovakiya, Turkiya, Rossiya, Janubiy Koreyada o'tkazilgan tanlovlarda e'tirofga sazovor bo'lgan.

Sh. BOYMURODOVA



Ta'lim muassasamizda o'quvchilarimizning yozgi ta'tildagi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun maktabimiz rahbari N.Shahnazarova boshchiligidagi pedagogik jamoaning barcha a'zolari hamjihatlikda mehnat qilmoqda. Bu yilgi ta'til tadbirlari Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus asosida tashkil etilayotir. Besh muhim tashabbus mazmun-mohiyatiga hamohang tarzda tashkil etilgan to'garaklarning ta'til davomidagi mashg'ulotlari rejasi ishlab chiqilib, har bir tashabbus bo'yicha alohida tadbirlar o'tkazilmoqda.


Besh imkoniyatdan samarali foydalanib

Birinchi tashabbus. Musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish va iste'dodini yuzaga chiqarish bo'yicha 1-7-sinf o'quvchilari ishtirokida "San'at festivali" o'tkazildi. Unda "Kamalak ranglari" to'garagi a'zolari rasmlar ko'rgazmasini namoyish etdi. "O'zbekiston — Vatanim mening!" mavzusidagi rasmlar tanlovida 7-"B" sinf o'quvchilari J.Nazarova va S.Sultonova g'oliblikni qo'lga kiritdi va maktab ma'muriyati tomonidan maqto'v yorlig'i bilan taqdirlandi. Festival yakunida o'quvchilar tomonidan qo'shiqlar, raqslar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Ikkinchi tashabbus. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha ham samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, maktabning 8- va 9-sinf o'quvchilari o'rtasida voleybol musobaqasi o'tkazildi va unda 8-"B" sinf o'quvchilari g'olib bo'ldi. Shuningdek maktab sport zalida 7-9-sinf o'g'il bolalari ishtirokida Toshkent shahar kikkboxing va boks federatsiyalari murabbiylari bilan davra suhbatini o'tkazilib, bu sport turlariga qiziquvchi o'quvchilarning savollariga mutaxassislar javob berdi. Qo'shni maktablar bilan voleybol, armrestling va futbol bo'yicha musobaqalar uyushtirib, o'quvchilarimizning mahoratini sinovdan o'tkazib boramiz. "Sog'lom oila — kelajagimiz poydevori" shiori ostida o'tgan sport musobaqasining tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Baxtigul Tilepova oilasi festivalning Toshkent shahar bosqichida ham faol qatnashib "G'alabaga intilishi uchun" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Uchinchi tashabbus. Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha tashkil etilgan "Kompyuter saboqlari" to'garagida o'quvchilar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet va veb-saytlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalarini oshirib bormoqda. Ularga bu borada informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi, to'garak rahbari Bibisora Aliqulova o'z yordamini ayamayapti.

To'rtinchi tashabbus. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitob-



xonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan mazkur yo'nalish bo'yicha maktabimiz kutubxonasida 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida "Yosh kitobxonlar" tanlovi o'tkazildi. Tanlovda o'quvchilar 4 shart asosida: 1-shart — tanishtiruv, 2-shart — badiiy asarlar bo'yicha savol-javob, 3-shart — adiblar hayoti va ijodi haqida so'zlab berish (slayd asosida), 4-shart — she'rni ifodali o'qish bo'yicha bellashdilar. Yakunda 7-"B" va 8-"B" sinf o'quvchilari faol kitobxon deb topildi.

Maktabimiz kutubxonasiga Adliya vazirligi xodimlari tomonidan 170 nomdagi bolalar adabiyoti namunalari sovg'a qilindi. "Kitobxonlik oyligi"da o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida "Men sevgan qahramon" shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazildi. Tadbirda Chingiz Aytmatovning "Oq kema", "Jamila" asarlari, bolalar adabiyoti namoyandalari Xudoyberdi To'xtaboyev, Janni Rodari, Pushkin asarlari sahnalashtirilib, namoyish etildi. Tanlov g'oliblari badiiy asarlar jamlanmasi bilan rag'batlantirildi.

Beshinchi tashabbus bo'yicha o'tkazilgan tadbirda 5-7-sinf o'quvchi qizlaridan iborat "Mohir qo'llar" to'garagi a'zolari to'qish, tikish, biser to'qish bo'yicha qo'l mehnati namunalari iborat ko'rgazma tashkil etildi.

M.AHMEDOVA,
Mirobod tumanidagi 175-maktab
direktori o'rinbosari

Tengdoshlari havasda

Maktabimizning faol sportchi qizlaridan biri Munavvarxon To'xtasinova badiiy gimnastika bilan to'rt yoshidan buyon shug'ullanadi. Ustozlari Mahfuzaxon Sobirova va Shirmonoy Tojiyeva qo'l ostida viloyat va respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan turnirlarda salmoqli natijalarni qo'lga kiritmoqda. Xususan, 10 yoshli o'quvchimiz "Vodiy yulduzchalari" ochiq turniri va klublar miqyosida o'tkaziladigan "G'uncha" musobaqasida birinchi, nufuzli "Happy caravan" xalqaro turnirida uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan. Shuningdek, Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan tashkil etilgan "Bahor malikalari" bellashuvida ham g'olib bo'lgan.

— Munavvarxon bilan umidimiz katta. U kelgusida xalqaro musobaqalarda ham birinchilikni qo'lga kiritishiga ishonamiz, — deydi murabbiyi Shirmonoy Tojiyeva. — Buning uchun mashg'ulotlarda toblanishi, o'z ustida tinmay ishlashi zarurligini unga uqtirmoqdamiz.

Munavvarga havas qilib, sportning bu nafis turi bilan shug'ullanayotgan qizlar soni ortmoqda. Masalan, Havasxon Abdullqosimova ham badiiy gimnastika bo'yicha tuman va viloyat miqyosida o'tayotgan musobaqalarda munosib ishtirok etmoqda.

Odinaxon AHMEDOVA,
Bag'dod tumanidagi
51-maktab o'qituvchisi

Yakkabog' tumanidagi 34-maktabda yozgi sog'lomlashtirish ishlari samarali tashkil qilinmoqda.

Faollar taqdirlandi

Ta'til bo'lishiga qaramay, maktab gavjum. Hozir shaxmat, shahka, taekvondo, futbol to'garaklari ishlab turibdi. Yaqinda to'garaklar a'zolari ishtirokida "Sog'lom avlod — sog'lom kelajak" mavzusida tadbir tashkil etildi. Tadbirda maktabimizning sportchi o'quvchilari — taekvondo bo'yi-

cha respublika chempioni Diyora Bozorova, kurash bo'yicha respublika chempioni Bibihilol Xudoyberdiyeva va sport to'garaklarining faol a'zolari faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

X.UMIROVA,
shu maktab o'qituvchisi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

2019-2020-o'quv yili uchun kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi va o'qituvchi-stajyor lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qiladi:

- Islom tarixi va manbashunosligi;
- Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish;
- Arab tili va adabiyoti;
- Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi;
- Din psixologiyasi va pedagogika;
- Xalqaro munosabatlar;
- Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi;
- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish.

G'arb tillari kafedralariga ishga qabul qilish maqsadida o'tkaziladigan tanlovda qatnashish uchun yuqori malakali va xalqaro tajribaga, ilmiy daraja, ilmiy unvonga ega yoki nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (PhD) tugatgan, o'zbek, rus, ingliz (IELTS, TOEFL, CEFR), arab (CEFR) tillari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal biladigan nomzodlar taklif etiladi.

Ishga qabul qilinganlarga yuqori oylik maosh kafolatlanadi. Tanlov jaryonida talabgorlar bilan suhbat o'tkazilib, ularning sinov darslari baholanadi.

To'liq ma'lumot Akademiyaning rasmiy sayti "iaau.uz" da mavjud.

Murojaat uchun manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
Telefonlar: (71) 244-94-66, (71) 244-00-91.

Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti tomonidan 1997-yilda Turikov Tavakkal Mashrabovich nomiga berilgan №101167 raqamli DIPLOM yo'qolganligi bois BEKOR QILINADI.


Bolalar mahorat darslarida

Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabi ta'til bo'lishiga qaramay o'quvchilar bilan gavjum. 5 muhim tashabbus bo'yicha faoliyat yuritayotgan to'garaklar o'g'il-qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Kuni kecha maktabda O'zbekiston Badiiy akademiyasining "Ikko Xiroyama" xalqaro madaniyat karvonsaroyi vakillari yapon origami san'ati bo'yicha mahorat darslarini o'tkazdilar. Unda bolalar ko'zoynak, turna, lola kabi turli shakllarni birgina qog'oz yordamida mohirlik bilan yasashni o'rgandilar. Bu o'g'il-qizlarda o'zgacha qiziqish uyg'otdi.

Bu kabi mahorat darslarini har bir to'garakda o'tkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, o'quvchilar futbol, voleybol, gimnastika musobaqalari, kitobxonlik bellashuvi, rassomlik tanlovida faol ishtirok etishmoqda.

Zulfiya SHAMSIYEVA, sog'lomlashtirish maydonchasi rahbari



10 ta to'garakda qiziqarli mashg'ulotlar

Chilonzor tumanidagi 131-maktabda o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bunda, eng avvalo, qaysi o'quvchi yozda nima ish bilan band bo'lishi aniqlab olindi. Shundan so'ng bo'sh vaqtini maktabda o'tkazish istagidagi o'g'il-qizlar orasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasiga qarab 10 ta to'garak tashkil etildi.



Shaxmat va stol tennis to'garagida bolalarning ham aqliy, ham jismoniy rivojlanishiga e'tibor qaratisla, "Yosh dasturchi", "Yosh ixtirochi" kabi innovatsion to'garaklarda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirib boriladi.

San'atga qiziquvchi yoshlar uchun drama, "Yosh



doirachilar", "Yosh rassomlar" to'garaklarida qiziqarli mashg'ulotlar olib borilmoqda. Shuningdek, "Yosh kitobxon", "Yosh tabiatshunos" to'garaklari a'zolari ochiq havoda, tabiat qo'ynida o'tkazilayotgan turli qiziqarli tadbirlarda qatnashib, o'z iste'dodlarini namoyish etishmoqda.

Til o'rganish yoki kasb-hunarga qiziquvchi o'g'il-qizlar uchun ham to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar murabbiylari rahbarligida katta qiziqish bilan ingliz, nemis tillarini o'rganmoqda, bichish-tikish, to'qish sirlarini puxta egallashmoqda.

Mafirat HAKIMOVA, 131-maktab rahbari

Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-3596. Tiraj 12087.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Zilola Maalatova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzil: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'za yakuni — 01.40 Topshirildi — 02.40

1 2 3 4 5 6